

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 891.1 - 1

BBK: 83.3 (5)

M - 23

Annotatsiya: Amrita Pritam she‘riyati, adibaning nasrchiligi, Amrita Pritam – maqolanavis, Amrita Pritam ishqiy lirikasida mahorat xususiyatlari, Shoir falsafiy lirikasida poetik mahorat, Shoir fuqarolik lirikasida ijtimoiy-siyosiy muammolar talqini, Amrita Pritam qo‘llagan she‘riy san‘atlar, Amrita Pritam asarlari O‘zbekistonda, Amrita Pritam va Zulfiya lirikasida ayol taqdiri va ishq tarannumi, Amrita Pritam va Zulfiya ijodida ona yerga sadoqat mavzusi kabi masalalar o‘rganilgan va xulosalar berilgan.

Mamajonova Mehrixon Tolibjon qizi

AMRITA PRITAMNING LIRIK OBRAZ YARATISH
MAHORATI

5A 120101 – Adabiyotshunoslik (urdu adabiyoti)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

f.f.n., dots. Xodjayeva T.A.

Toshkent 2015

Himoyaga ruxsat berildi:

Magistratura bo‘limi boshlig‘i

f.f.n. Ibrohimova Sh.B.

MUNDARIJA:

Kirish.....	4
I bob. Panjob adabiyoti – XX asr 30-yillar. Amrita Pritam ijodiy yo‘li.....	12
1.1. Amrita Pritam she‘riyati.....	12
1.2. Adibaning nasrchiligi.....	16
1.3. Amrita Pritam – maqolanavis.....	19
1-bob bo‘yicha xulosalar.....	22
II bob. Amrita Pritam she‘riyati(60-80 yillar)da obraz yaratish uslublari.....	24
2.1. Amrita Pritam ishqiy lirikasida mahorat xususiyatlari.....	25
2.2. Shoir falsafiy lirikasida poetik mahorat.....	35
2.3. Shoir fuqarolik lirikasida ijtimoiy-siyosiy muammolar talqini.....	40
2.4. Amrita Pritam qo‘llagan she‘riy san‘atlar.....	48
2-bob bo‘yicha xulosalar.....	55
III bob. Adabiy aloqalar: Amrita Pritam va Zulfiya.....	57
3.1. Amrita Pritam asarlari O‘zbekistonda.....	58
3.2. Amrita Pritam va Zulfiya lirikasida ayol taqdiri va ishq tarannumi.....	61
3.3. Amrita Pritam va Zulfiya ijodida ona yerga sadoqat mavzusi.....	71
3-bob bo‘yicha xulosalar.....	76
Xulosa.....	78
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	81
Ilovalar.....	85

KIRISH

Ma'lumki, adabiyot – soʻz san'ati va ayni damda madaniyatning koʻzgusidir. Demak, madaniyatning taraqqiyoti adabiy imkoniyatlarining taraqqiy etishini talab qiladi.

Azaldan xalqimiz sharq adabiyotini kuchli qiziqish bilan oʻrgangan. Istiqlool yillariga kelib sharq adabiyotida tarjima sohasiga juda katta eʼtibor qaratilayotgani eʼtiborga molik holat desak, mubolagʻa boʻlmaydi, adabiyotshunoslik, xususan tarjimaning oʻziga xos xususiyatlariga bagʻishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, oʻquv qoʻllanmalari, yangi-yangi adabiyotlar chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga oʻz hissasini qoʻshmoqda. Zotan, muhtaram yurtboshimiz taʼkidlaganlaridek, “Ilgari oʻzbek adabiyotining namunalarini boshqa tillarga tarjima qilish asosan uchinchi til, yaʼni rus tili orqali amalga oshirilardi. Endilikda adabiyotimizning eng yetuk asarlarini ona tilimizdan bevosita gʻarb va sharq tillariga tarjima qilishga qaratilgan ishlarni kuchaytirishimiz zarur”.¹

Yuqoridagi fikrlardan shuni tushunish mumkinki, biz yoshlarga yaratilib berilayotgan imkoniyatlar amalda ham oʻz tasdigʻini topmoqda. Endilikda biz nafaqat urdu tili va adabiyotini, balki shu xalqning tarixi, madaniyati hamda urf-odatlarini, turmush tarzini bevosita oʻrganish, yaqindan tanishish imkoniyatiga egamiz. Bundan tashqari ikki davlat oʻrtasidagi hamkorlik aloqalarini yanada yuksaltirishga oʻz salohiyatimizni safarbar etishimiz darkor. Jumladan, yurtboshimiz oʻz maʼruzalarida shunday deydilar: “Bugun yangicha fikrlaydigan, oʻz kelajagini mamlakatimiz kelajagi bilan bogʻliq holda koʻradigan yangi avlod vakillari hayotga dadil kirib kelmoqda. Yoshlarimiz siymosida muayyan kasb, baʼzan bir necha yoʻnalish boʻyicha diplom olgan, bir necha xorijiy tillari va adabiyotini oʻrgangan, zamonaviy texnika va texnologiyalarni puxta oʻzlashtirgan, mustaqil inson sifatida shakllangan, bir soʻz bilan aytganda, el-

¹Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat - yengilmas kuch. – T.: Maʼnaviyat, 2009. 139-b.

yurt xizmatiga shay, yuragi yonib, ko‘zlaridan o‘t chaqnab turgan navqiron yigit-qizlarni ko‘rib qalbimizda ishonch, g‘urur-iftihor tuyg‘ulari jo‘sh uradi’’.²

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng dunyoning yetakchi davlatlari bilan har tomonlama munosabatlar o‘rnatish huquqini qo‘lga kiritdi. Respublikamiz ko‘p yillardan beri Hindiston Respublikasi bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Ushbu do‘stona aloqalar iqtisodiy, siyosiy va diplomatik sohalardan tashqari madaniyat sohasida ham o‘z aksini topmoqda. Ikki davlat boshliqlarining mamlakatlarga o‘zaro tashriflari, shuningdek, ular o‘rtasidagi delegatsiyalar almashinuvi, ayniqsa, O‘zbekistonda Hindiston elchixonasi va Hindiston madaniyat markazining ochilganligi madaniy aloqalarning kengayib borishi hamda hind madaniyati, adabiyotiga katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Biz ham tanlagan mavzuimiz orqali O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi o‘zaro madaniy aloqalarga oz bo‘lsada o‘z hissamizni qo‘shamiz, deb umid qilamiz.

Mazkur magistrlik dissertatsiyasi Shimoliy Hindiston, ya’ni Panjob adabiyotining yirik namoyondalaridan biri, ham shoira, ham yozuvchi sifatida nom qozongan Amrita Pritamning o‘rganilmagan she’riyatini tadqiq qilishga bag‘ishlanadi.

Magistrlik dissertatsiyasi mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi.

“Nazarimda, biz bir vaqtlar rahmatli Ozod Sharafiddinov boshlagan muhim bir ishni e’tibordan chetda qoldirgandekmiz. Ya’ni, u kishi “Jahon adabiyoti” jurnali orqali boshlab bergan dunyo adabiyotining eng yaxshi namunalarini tarjima qilish, chop etish, o‘rganish bilan bog‘liq tajribalar, chet el yozuvchilari bilan aloqalarni yanada rivojlantirish masalasiga bugun yetarlicha ahamiyat bermayapmiz... Qisqacha aytganda, boshqa sohalar qatori adabiyot sohasida ham xalqaro aloqalarni kuchaytirishimiz zarur’’.³

²Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 yilligiga bag‘ishlangan marosimda so‘zlagan nutqidan

³Karimov I.A. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. T.: Ma’naviyat, 2009. 32-b.

Yurtboshimizning Yozuvchilar uyushmasi faoliyati samarasini oshirish borasidagi fikr-mulohazalari nafaqat uyushma a'zolari, balki butun adabiy jamoatchilik, xususan biz sharqshunoslar zimmasiga ham mas'uliyatli vazifalar yuklaydi. Shu ma'noda ushbu magistrlik dissertatsiyasi Panjob shoirasi va yozuvchisi Amrita Pritam she'riyati(60-80 yillardagi)ning o'ziga xos jihatlarini, ayniqsa ularda obraz yaratish masalasini ilmiy tadqiq etishga bag'ishlanganligi hamda shoiraaning urdu tilida yozilgan she'rlari o'zbek tiliga ilk bor badiiy tarjima qilinganligi bilan xarakterlidir.

Ta'kidlash joizki, garchi Amrita Pritam hayoti, ijodining o'ziga xos jihatlarini, ayniqsa nasrchiligi ilmiy jihatdan o'rganib kelinayotgan bo'lsada, lekin uning 60-80 yillardagi she'riyati, qolaversa, urdu tilida chiqqan she'rlari tamoman o'rganib chiqilmagan.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, 1984 yilda chiqqan “امرتا پريتيم کی شاعری”, ya'ni “Amrita Pritam she'riyati”⁴ nomli to'plamidagi she'rlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot ishining ob'yekti va predmeti. Ishning *ob'yekti* sifatida Panjob shoirasi Amrita Pritamning 1984 yilda yozilgan “امرتا پريتيم کی شاعری” (“Amrita Pritam she'riyati”) nomli she'riy to'plami belgilandi va tanlab olingan she'rlarda obraz yaratish masalasi o'rganildi. Shuningdek, zamonaviy Panjob adabiyotiga oid materiallardan, yetakchi sharqshunos, adabiyotshunos olimlarning monografiyalari, risolalari, ilmiy tadqiqot ishlari va maqolalaridan, qolaversa, she'rshunoslik ilmi bo'yicha maxsus adabiyotlardan nazariy manba sifatida foydalanildi.

Ishning *predmeti* lirik qahramon yaratish mahoratini Amrita Pritam she'riyati asosida o'rganishdan iborat. She'rlarda obraz yaratish uslublari ham tadqiqotimiz predmetini belgilaydi.

⁴ Pritam A. امرتا پريتيم کی شاعری . D.: Star, 1984.

Tadqiqot ishining maqsad va vazifalari. Amrita Pritam she'riyati MDH hindshunosligida o'rganilgan bo'lsa-da, lekin uning 60-80 yillardagi she'riyati, ayniqsa urdu tilida yozgan she'rlari tamoman o'rganib chiqilmagan. Ushbu tadqiqot ishimiz shoironing “امرتا پريتيم کی شاعری” (“Amrita Pritam she'riyati”) nomli she'riy to'plami bilan tanishish va ularda yaratilgan obrazlarni o'rganish va tahlil qilish, qolaversa ayni bir davrda ijod qilgan o'zbek shoirasi Zulfiyaxonim she'rlarida yaratilgan qahramon bilan o'xshash jihatlarini ko'rsatib berishni asosiy *maqsad* qilib qo'ygan.

Mazkur tadqiqot ishimizga yuqorida ko'zlangan maqsadga muvofiq bir qator aniq *vazifalar* qo'yilgan:

- Mavzuga doir ilmiy manbalar to'plash va tanishish;
- Olimlar tomonidan bildirilgan ilmiy-nazariy qarashlarni atroflicha o'rganish;
- Shoironing “امرتا پريتيم کی شاعری” (“Amrita Pritam she'riyati”) nomli she'riy to'plamidan joy olgan she'rlarini mavzu nuqtai nazaridan o'rganish, g'oyasini aniqlash va lingvopoetik tahlil qilish;
- Tanlab olingan she'rlarini o'zbek tiliga manzum, ya'ni badiiy tarjima qilish va asar markazidagi lirik qahramon ruhiyati manzaralarini ko'rsatib berish;
- Lirik obraz timsoli orqali shoira shaxsiyati o'z ifodasini topganligini ochib berish;
- Shoira she'riyatiga davr muammolarining ta'sirini ko'satish;
- Amrita Pritamning fuqarolik hamda ishqiy lirikasini o'zbek shoirasi she'rlari bilan qiyoslab o'rganish;
- Olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra ilmiy xulosalar berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- Amrita Pritamning 60-80 yillar (urdu tili) dagi she'riyatining o'ziga xos jihatlari, lirik obraz yaratish mahorati ilmiy tadqiq etildi;
- Hali o'rganilmagan ijodiy merosi lingvopoetik tahlil etildi;
- She'riyati o'zbek shoirasi she'rlari bilan qiyoslab o'rganildi;
- Ko'plab she'rlari o'zbek tiliga ilk bor bevosita badiiy tarjima qilindi.

Tadqiqotning asosiy masala va farazlari:

- Rus olimlari И.Д.Серебряков va Е.П.Челышев qarashlari bilan tanishish;
- Adabiyotshunos Т.А.Ходжыеvaning ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish;
- Rus tilida chop etilgan “Qora atirgul”⁵ hamda “Dil sirlari”⁶ she'riy to'plamlarini ko'rib chiqish;
- Amrita Pritam haqida o'zbek tilida chiqqan maqolalar va Zulfiya tomonidan bilvosita tarjima qilingan she'rlar bilan tanishib, ma'lum bir xulosaga kelishdan iborat.

Tadqiqot ishi bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Mazkur magistrlik dissertatsiyasi mavzusini yoritish uchun asosiy manba sifatida Amrita Pritamning “امرتا پريتيم کی شاعری” (“Amrita Pritam she'riyati”) nomli she'riy to'plami tanlab olindi. Ushbu to'plam 1984 yil Dehlida joylashgan “Star” (“Yulduz”) nashriyotida nashrdan chiqqan. Amar Dehlaviy tomonidan tuzilgan ushbu to'plamdagi she'rlarning asosiy qismi “Qog'oz va yelkan” asaridan olingan.

A.Pritamning ushbu to'plamidagi ko'plab she'rlari xotin-qizlar taqdiri mavzusiga bag'ishlangan. 50dan ortiq poemalarni o'zida jamlagan majmuaning ahamiyatli tomoni shundaki har bir she'rni bir vaqtning o'zida ham urdu, ham hindiy tillarida mutolaa qilish mumkin.

⁵ Притам А. Черная роза (сб. стихов) – Т., 1971

⁶ Притам А. Тайны сердец (сб. стихов) – Алма-Ата, 1977

Qo'shimcha manba tariqasida И.Д.Серебряков⁷ va Е.П.Челышев⁸ kabi rus olimlari asarlari, o'zbek sharqshunosi Т.А.Ходжайеванинг ilmiy tadqiqotlari, xususan "Amrita Pritam nasrchiligi"(rus tilida)⁹, "O'zbekiston va Hindiston adabiy aloqalari tarixidan"¹⁰, "O'zbek-hind madaniy-adabiy aloqalari tarixidan"¹¹, "Panjob adabiyoti"¹² nomli monografiyalari hamda Zulfiyaning "Tong bilan shom aro"¹³ saylanmasiga tayanildi. Internet saytlaridagi materiallaridan ham foydalanildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Hindiston xalqlar adabiyotining tarixiy – madaniy rivojlanish prinsipiga asoslanib, xususan Panjob adabiyotining rivojlanish jarayonini o'rgangan holda tanlangan mavzuni qiyosiy-tarixiy metod asosida yoritib berishga harakat qilindi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishi A.Pritamning obraz yaratish mahoratiga bag'ishlanganligi va urdu tilida chiqqan she'rlarini ilk bor o'zbek tiliga badiiy tarjima qilinganligi bilan ahamiyatli. Tadqiqot mazmuni beshta ilmiy maqola va turli ilmiy anjumanlarda ma'ruzalar shaklida aks etgan. Tadqiqot natijalari Hindiston (Panjob) adabiyotini o'rganishda bakalavr va magistratura talabalari hamda shu soha mutaxassisleri uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga bakalavr bosqichi talabalari uchun "*Hindiston adabiyoti*", "*O'zbekiston va Hindiston adabiy aloqalar tarixidan*", magistratura bosqichida "*Shimoliy Hindiston adabiyoti*" fanlariga oid materiallar tuzishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishi tarkibining qisqacha tavsifi. Ushbu tadqiqot ishimizning mazmuni 3 qismda jamlangan. Bular: *kirish, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan* iborat.

⁷Серебряков И.Д. Пенжабская литература. М.: Восточной литературы, 1963. С. 162-165

⁸Челышев Е.П. Современная индийская литература. М.: Художественная литература, 1981. С. 136-170

Челышев Е.П. Индийская литература вчера и сегодня. М.:Художественная литература, 1989. С. 192-213

⁹ Ходжаева Т.А. Художественная проза Амриты Притам. Т.:ТошДШИ, 2007.

¹⁰Ходжайева Т.А. O'zbekiston va Hindiston adabiy aloqalar tarixidan. Т.: ToshDSHI, 2011. 81-86 b.

¹¹Ходжайева Т.А. O'zbek-hind madaniy-adabiy aloqalari tarixidan. Т.: ToshDSHI, 2012. 60-65 b.

¹²Ходжайева Т.А. Panjob adabiyoti. Т.: ToshDSHI, 2014. 41-50 b. 69-75 b.

¹³Zulfiya. Tong bilan shom aro (Saylanma) – Т.: Sharq, 2005

Kirish qismi ishning dolzarbligi, ishning ob'yekti va predmeti, maqsadi va vazifalari, ilmiy yangiligi, masala va farazlari, adabiyotlarning va qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyatidan iborat.

Tadqiqot ishining asosiy qismida mavzu bo'yicha shu kungacha amalga oshirilgan ishlar, erishilgan natijalar tahlil qilindi hamda tahlil etilgan natijalarga tayangan holda ilgari surilayotgan g'oya va fikrlar ilmiy jihatdan asoslanib, tegishli umumlashmalar berildi.

Asosiy qism uch bobda o'z aksini topgan bo'lib, birinchi bob **“Panjob adabiyotida XX asr 30-yillar... Amrita Pritam ijodiy yo'li”** deb nomlanadi. Uning **“Amrita Pritam she'riyati”** nomli birinchi faslida Panjob adabiyotida 1930 yillardagi adabiy muhit, shoiraning she'riyatga kirib kelishi va yetuk shoira sifatida shakllanish bosqichlari, shoira ijodidagi har bir bosqichning o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bobning ikkinchi fasli **“Adibaning nasrchiligi”** deb nomlangan bo'lib, unda shoiraning bir vaqtning o'zida ham nazmda, ham nasrda qalam tebratgan serqirra ijodkor ekanligi xususida so'z boradi. Ko'plab davlatlarga qilgan sayohatlari natijasida olgan taassurotlari bayon etilgan **“Amrita Pritam – maqolanavis”** nomli uchinchi faslida O'zbekistonga bag'ishlangan maqolalar to'g'risida ma'lumotlar uchraydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Amrita Pritam she'riyati(60-80 yillar)da obraz yaratish uslublari”** deya nomlanib, **“A.Pritam ishqiy lirikasida mahorat xususiyatlari”** nomli birinchi faslida shoiraning “Quvonch”, “Manzil”, “Ovoz”, “Yorug'lik” kabi she'rlari manzum tarjima qilinib, tahlilga tortildi va ularda yaratilgan obrazlar atroflicha o'rganildi hamda shoira yaratgan uslublari haqida ma'lumotlar keltirildi. **“Shoira falsafiy lirikasida poetik mahorat”** deya nomlangan ikkinchi faslida ijodkorning falsafiy mushohadaga boy she'rlari borasida ilmiy xulosalar berilgan. Ikkinchi bobning uchinchi **“Shoira fuqarolik lirikasida ijtimoiy-siyosiy muammolar talqini”** faslida

shoiraning Panjob bo'linishi davri ijtimoiy-siyosiy masalalarga doir mazmundor she'rlari tahlilga tortilgan.

Uchinchi bob **“Adabiy aloqalar: Amrita Pritam va Zulfiya”** deb nomlanib, ikki zamondosh shoira she'rlarida ko'tarilgan mavzularga bag'ishlandi va o'z xalqining sevimli shoirasi sifatida ijod qilgan dugonalar yaratgan obrazlarining umumiyliigi aniqlandi. **“Amrita Pritam asarlari O'zbekistonda”** nomli birinchi faslida O'zbekistonda nashr qilingan shoira asarlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bobning ikkinchi **“Amrita Pritam va Zulfiya lirikasida ayol taqdiri hamda ishq tarannumi”** faslida ularning ayol va ishq mavzusiga bag'ishlab yaratgan asarlaridagi o'xshashliklar misollar yordamida ilmiy asoslab berilgan. **“Amrita Pritam va Zulfiya ijodida ona yerga sadoqat mavzusi”** nomli uchinchi faslda shoiralarning o'zlari tug'ilib o'sgan zaminni tarannum etuvchi she'rlari qiyosiy tahlili bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Xulosada esa olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra yakuniy xulosalar chiqarildi.

Tadqiqot so'ngida mazkur tadqiqot ishini bajarishda foydalanilgan va o'rganib chiqilgan adabiyotlar, nashr qilingan tadqiqiy asarlar, ensiklopediya va lug'atlar, internet saytlari ro'yxati keltirildi.

I BOB. PANJOB ADABIYOTI – XX ASR 30-YILLAR...

AMRITA PRITAMNING IJODIY YO'LI

1.1. *Amrita Pritam she'riyati*

Zamonaviy ko'p millatli Hindiston xalqlar adabiyotida XX asrning 30-90 yillarida ijod qilgan Panjob shoirasi va yozuvchisi Amrita Pritam ijodi muhim ahamiyat kasb etadi. Amrita Pritam qalamiga 60 dan ziyod asarlar: 20 ta she'r, poema, qo'shiqlar to'plami, 28 ta roman va povestlar, 200 dan ortiq hikoyalar va ocherklar, folklor, maqolalar va tarjimalarga oid tadqiqotlar.

Hindiston milliy ozodlik kurashi barcha milliy adabiyotlarda o'z aksini topdi, xususan panjob adabiyotiga ham ta'sir etmay qolmadi. Panjobda xalq demokratik harakatlari ham kuchaydi. Panjobning yirik yozuvchi va shoirlari jamiyat hayotida o'z o'rinlarini topa boshladilar.

1938 yildan boshlangan german-italyan va yapon fashizmiga qarshi kurash, ayniqsa sovet xalqining fashistlar agressiyasiga qarshi olib borgan kurashi hind adabiyotiga, qisman panjob adabiyotiga ham yangi mavzular olib kirdi.¹⁴

1947 yil 15 avgust Hindiston mustaqillikni qo'lga kiritdi. Mamlakat ikkiga Hindiston va Pokistonga ajraldi. Panjob hududining yarmi Pokistonga, yarmi esa Hindistonga o'tib ketdi. Bu davrga kelib, eng birinchi kolonializm qoldiqlarini yo'q qilish, agrar reforma o'tkazish, rivojlangan iqtisodiyotni vujudga keltirish, aholining madaniy saviyasini oshirish masalalari ko'ndalang edi.

Mana shunday ichki siyosat masalalariga kolonial imperializm sistemasining yemirilishi bilan vujudga kelgan xalqaro muammolar ham qo'shilib ketdi.¹⁵

¹⁴ Серебряков И.Д. Пенжабская литература. – М., 1964. 13-б.

¹⁵ Серебряков И.Д. Пенжабская литература. 132-б.

Bularning barchasi o'z navbatida panjob adabiyotiga ta'sirini o'tkazdi. 30 yillarda nasrchilikda bir qancha yutuqlar qo'lga kiritildi. Ko'plab yozuvchilar endi kichik hikoya janrida ijod qila boshladilar. Panjob adabiyotida kichik hikoya janri Yevropa tanqidiy realizmi va rus shoirlari Tolstoy, Chexovlarning milliy an'analari asosida rivojlandi. Hind, urdu, bengal adabiyotining ham ta'siri katta bo'ldi.

40 yillarga kelib yangi mavzu va yangi qahramonlar paydo bo'la boshladi, yangi adabiyot janri: kichik hikoya, ocherk janrlari rivojlandi. Shunday qilib bu yillarda Panjobda nasriy janrlar juda tez rivojlanib ketdi. Bularning hammasi Gurbaxsh Singx, Mohan Singx, Amrita Pritam va boshqa yozuvchilar ijodida o'z aksini topdi. Panjob adabiyotidagi muhim tarixiy bosqich ularning nomi bilan uzviy bog'liqdir. Ular tarixiy taraqqiyotni to'g'ri anglash, adabiyotni mavhumlikdan halos etish g'oyalari bilan sug'orilgan ilg'or ramziylik harakatining asoschilaridir.

Bunday g'oyalar tasodifiy emas edi, ular 30-40 yillar **“Pragativad”** (taraqqiyparvar) adabiy oqimida o'z aksini topgan bo'lib, adabiyotni ijtimoiy voqelik bilan hamnafas qilishning bir ko'rinishi edi. **“Pragativad”** (taraqqiyparvar) she'riyati Hindiston, jumladan, panjob adabiyoti taraqqiyotida muhim yo'nalishni belgilab berdi. Ana shunday ilg'or yo'nalish taraqqiyparvar Panjob shoirasi va yozuvchisi Amrita Pritam ijodida kamol topdi va rivojlandi.

Amrita Pritam 1919 yilning 31 avgustida Lahor yaqinidagi Gujranvala (hozirgi Pokiston hududi) shaharchasida tarixchi va shoir Kartar Singx Xitkari oilasida dunyoga keldi. Kartar Singx qizida uzoq o'tmishga va chuqur an'analarga ega bo'lgan Hindiston, jumladan, besh daryo o'lkasi bo'lgan Panjob adabiyotiga katta qiziqish uyg'ota oldi.

10 yoshida Amrita onasidan judo bo'ldi va otasi tarbiyasida o'sdi. Uning adabiyotga bo'lgan qiziqishi juda erta uyg'ondi, ilk she'rini 11 yoshida yozdi. U

bo'sh vaqtlarini setor chalish va otasining yordami bilan kichik she'rlar bitishni mashq qilish bilan o'tkaza boshlaydi. Musiqa va she'riyat Amritani sirli go'zallik va romantik orzular dunyosiga yetaklab kiradi. Buning natijasida u an'anaviy Singx she'riyatiga taqlid qilib, asosan diniy-mistik va sentimental-romantik kayfiyatdagi she'rlar yoza boshlaydi. Ana shu she'rlarining bir nechtasi 1935 yilda chiqqan "Sovuq nurlar" she'riy to'plamidan o'rin oladi.

Ba'zi tanqidchilar uni "panjob adabiyotini rahbari"¹⁶ deb ta'riflashadi. Shunday xulosalar mavjudki, u yozuvchi ayol sifatida nazmdagi mustaqil ayol tabiatini yaratgan. A.Pritam Mohan Singx bilan birga mashhur Panjob shoiri Chatrik yaratgan demokratik an'analarini davom ettirdi. Panjob adabiyotida ushbu harakat "Amrita – Mohan dxara" sifatida nomlandi. Uning shoira va yozuvchi ayol sifatida ijodi hozirgi murakkab hind sharoitida shakllandi. Uning ijodi hind insonparvarligiga tayanadi.

A.Pritam asarlari hindiy, urdu, ingliz, gujarati, marathi, malayalam, kannada tillariga tarjima qilindi. Bundan tashqari 30 dan ortiq tillarda: rus, serb, chex, vengr, bolgar, nemis, alban, xitoy, ingliz, ispan, yapon tillariga tarjima qilingan asarlari nashr etildi.

Amrita Pritam shoira sifatida 1930 yillarning ikkinchi yarmidan tanila boshladi. 30 yillarning o'rtalarida she'riy to'plami chop etilishiga qaramay, u asosan 40yillarda adabiyot maydoniga kirib keldi. 1935-1947 yillar esa Amrita Pritam uchun ijodiy kamol topish va adabiyotda o'z o'rnini belgilab olish yillari bo'ldi. Uning she'riyati asosini muhabbat lirikasi tashkil etardi va har qanday sharoit, har qanday vaziyatda ham ayol taqdirini bosh mavzu etib o'ziga maqsad qilib qo'ygan.

¹⁶ Tikki U. I write for myself // Hindustan Times. – New Delhi. – 1981. January 25

Amrita Pritam o'zining lirik she'riyatida insonning ko'p qirrali murakkab ichki dunyosini tasvirlash bilan bir qatorda fuqarolik pozitsiyasini aniq ifodalagan holda milliy va ijtimoiy turmush muammolari to'g'risida she'rlar yarata boshladi. Ilk she'rlaridayoq shoira o'z xalqining muhim masalalariga bo'lgan munosabatini qalamga oldi. Bo'lajak shoira o'z xalqining muhim masalalariga bo'lgan munosabatini qalamga oldi. Bo'lajak shoira o'z xalqining muhim masalalariga bo'lgan munosabatini qalamga oldi. Bo'lajak shoira o'z xalqining muhim masalalariga bo'lgan munosabatini qalamga oldi.

I.D.Serebrikov yozishicha: “Panjobliklarning boy folklori, ularning qadimiy qissa va epik adabiy namunalari, ularning g'amu quvonchlari, to'y qo'shiqlari va raqslari va barcha hayotiy kundalik turmush tarzi yoshligidan Amritaning tasavvuriga singdirilgan edi”.¹⁷

Uning lirik kechinmalari zamona ovozigacha hamohang bo'lib, antikolonial va antifashistik kayfiyatda baralla yangraydi. Bunga misol tariqasida “Zamin farzandlari”, “Hindistonga jo'nab qol!” hamda Bengaliyadagi ocharchilik to'g'risida yozilgan she'rlarini keltirishimiz mumkin. “Vorisi Shohga xitob” she'ri shoira o'z xalqining muhim masalalariga bo'lgan munosabatini qalamga oldi.

Ilk she'riy to'plami 1935 yilda nashrdan chiqqan bo'lsa, 1936 yilda uning navbatdagi to'plami “Amrita to'lqinlari” (yoki “Obi hayot to'lqinlari”), so'ng “Hayot” to'plami chop etildi. Dastlabki she'rlari diniy-ishqiy xarakterga ega bo'lib, uning iste'dodi shakllangan o'sha muhit uchun xos bo'lgan holat edi.

1941 yilda chiqqan “Shudringlarda chayilgan gullar” nomli kitobida ishq mavzusini tarannum etdi. Shoira ushbu to'plamda g'amga botgan va yig'lagan ayollar obrazini, ishqdan yashnab kulgan, ko'zida olov, qalbida onalik mehri bor munisalar siymosini yaratdi.

So'ngra birin-ketin “O, kuychilar” (1942) va “Bulutlar hoshiyasi” (1943) asarlari olam yuzini ko'rdi. Ayollarning asriy armonlari uning she'rlarida

¹⁷ Серебряков И.Д. Пенжабская литература. 163-б.

¹⁸ Ходжаева Т.А. Индия халқлари адабиёти. – Т.: ТДШИ нашриёти, 2010. 126-б.

yangradi. Bunga “She’r yozaman”, “Orzu ovozi”, “Uyqusiz yillar”, “Qor yog’ar” kabi she’rlarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

A.Pritam 1947 yildan keyingi ijodida Hindiston oldida turgan masalalarni hal etish yo’llarini qidiradi, inson taqdirining umumbashariyat taqdiri bilan aloqador ekanligini ko’rsatishga intiladi. Shoir o’zga xalqlar san’ati va adabiyotida yaratilgan obrazlarni ziyraklik bilan idrok etib, Hindistondan tashqaridagi muammolar va obrazlarga murojaat qiladi. Bunga “Kasturi” (1959 yil), “Nagmani” (1964), “Qora atirgul” (1966 yil), “Borliq” (1967) kabi she’rlar to’plami va poemalar misol bo’la oladi.

1.2. Adibaning nasrchiligi

Amrita Pritam nasrchiligi uning lirik she’riyati mavzularini davom ettirdi va uni realistik hikoya va romanlar bilan to’ldirdi. “Doktor dev”, “Qafas”, “Yopiq eshik” romanlarida muallifning diqqat markazida o’z taqdirini o’zi hal etilishni anglagan, jamiyat hayotida faol qatnashish borasida ham o’z huquqini tushungan ayollar obrazi turadi. Adiba insonni hurmat qilish, ayollarni e’zozlashni targ’ib qiladi, kitobxon diqqatini hind voqealaridagi dolzarb masalalarga – xotin-qizlar ozodligi, o’z baxti uchun kurash, jaholatga nisbatan murosasiz bo’linishga qaratadi. Uning uchun muhimi inson faolligidir.¹⁹

Amrita Pritamning birinchi hikoyalar to’plami 1943 yilda chop etilgan. Ilk to’plamlarida an’anaviy Panjob hikoyachiligida bo’lganidek, ehtirosiylik (sentimentalizm) kuchli edi.

50 yillar yaratgan asarlarida shoiraning ijtimoiy-siyosiy va estetik qarashlari uzil-kesil shakllandi va uning nasriy asarlari – romanlari, hikoyalari va adabiy-tanqidiy maqolalarida o’z aksini topdi.

¹⁹Xodjayeve T.A. Hindiston xalqlari adabiyoti. 127-b.

60 yillar Panjob adabiyoti sahnasida A.Pritam ijodi, uning romanlari alohida ajralib turadi. Bu davrga tegishli ayol ruhiyati, qarashlari dadil va o'ktamdir. Bu ahloqan pok, o'zlikni anglash, o'z qadr-qimmatini izlashdir.

Keyingi to'plamlari asosan 60-70 yillarda chop etilib, yozuvchi uchun bu yillar sermahsul hisoblanadi. Aynan shu davrdagi roman-novellalari Hindistonning boshqa tillaridagi adabiy tanqidchilarning ham diqqatini tortadi. Mana shu yillarda chop etilgan "U odam, U ayol" (1974), "Mening sevimli hikoyalarim" (1975) kabi asarlari ko'tarilgan mavzuning dolzarbligi va qamrovi kattaligi bilan ajralib turadi. Yozuvchi ahloqiy-ma'naviy mavzuni kengroq yoritib-da, "Bugun", "Bo'm-bo'sh joy" kabi hikoyalarda tinchlik va urush masalalari maqolaviy shaklda yozilgandir.²⁰

Yozuvchi fe'l-atvori va taqdiri xilma-xil ayollar tasvirini yaratadi. Uning asarlarida Panjobning bo'linishi ular hayotiga ta'sir etmasdan qolmaydigan ona, ma'shuqa, kelinchak, opa-singillar kabi oddiy ayollar tasviri o'z ifodasini topgan. Yozuvchi sifatida o'z hikoyalarida bo'linishning og'ir oqibatlarini yoritib beradi.²¹

Krishanlal Hansning "Hind adabiyotiga tasnif"²², Gurbaxsha Singx "Kartar Singx Duggal - nasrnavis"²³ ilmiy ishida, Jasbir Singx Ahluvalining "Panjob adabiyotining istiqboli"²⁴ va shu kabi boshqa ilmiy ishlarda Amrita Pritam romannavis sifatida Kartar Singx Duggal, Surindra Singx Narulalar qatorida ta'riflanadi.

Taniqli hindshunos T.A.Xodjayeva Amrita Pritam hikoyalarini mavzusiga ko'ra 4 guruhga bo'ladi:

1. Ayol taqdiri va baxti

²⁰Xodjayeva T.A. Hindiston xalqlari adabiyoti. 129-b.

²¹O'sha yerda

²²Krishanlal Hans. Bxaratiya sahitya darshan. – Kanpur, 1972

²³Gurbaxsha Singh. Kartar Singh Duggal as a writer of prose-fiction. – M., 1975

²⁴Ahluwalia Jasbir Singh. Punjabi literature in perspective. – Ludhiana, 1976

2. Siyosiy hikoyalar
3. Tarixiy-afsonaviy asarlar
4. Eksperimental (tajriba) hikoyalar

Yoshlar muammosi – hind ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muammolardan biridir. “Musofir” va “Kisavurlar” asarlarida bu muammo o’zining yorqin ifodasini topgan. Hozirgi Panjob adabiyotidagi eng yaxshi asarlar bilan birga bu romanlarning ham diqqatga sazovor tomoni inson taqdirining millat va shu avlod qismati bilan chambarchas bog’lanib ketganligining ajoyib tasviri tushurilganligidadir. U ahloqiy qadriyatlarni yoshlar nuqtai nazari bilan baholaydi, ular bilan hamnafas va hamfikr edi.

“Musofir” asarida bu muammo axloqiy-ma’naviy tasvirda berilsa, “Kisavurlar”da ijtimoiylikka ko’proq e’tibor beriladi va Amrita Pritam bunda davlat miqyosida poraxo’rlik va ishsizlik kabi o’tkir muammolarni ko’tarib chiqqan jamiyatshunos sifatida masalaga jiddiy yondoshadi. 80-90 yillarda uning adabiyotshunoslikka oid ocherklar, esse, intervyu va chizgilar to’plami chiqdi.

Ko’rinib turibdiki, A.Pritam nomi faqat she’riyatda emas, nasrchilikda ham hammaga ma’lum va mashhur.

1.3. Amrita Pritam – maqolanavis

Panjob adabiy hayotida nasriy janr – maqolanavislikning tutgan o’rni beqiyos. Amrita Pritam bir necha maqoladan tashkil topgan “Yigirma bir gulbargli atirgul”²⁵ va boshqa shu kabi ko’plab asarlari bilan ushbu janr rivojiga ulkan hissa qo’shdi. Mustaqil davlatlar hamdo’stligiga kiruvchi mamlakatlar mavzusi uning ushbu to’plamidan keng o’rin olgan.

²⁵Pritam A. Ikkis pattiyan ki gulab (yigirma bir gulbargli atirgul). – D., 1968. 42-b.

Muallif Bolgariya, Ruminiya, Rossiya, Yugoslaviya kabi mamlakatlarga tashrifi chog'ida uni hayratga solgan uchrashuvlar va voqealar haqida so'z yuritadi. To'plamning birinchi qismi o'z ichiga yettita maqolani qamrab oladi. Ulardan ikkitasi Rossiya hamda Armaniston mamlakatlariga bag'ishlanadi. Ikkinchi qismi esa oltita maqoladan tashkil topgan bo'lib, o'quvchida samimiyligi hamda o'zida boy ma'lumotlarni jamlagani bilan katta qiziqish uyg'otadi.²⁶

Bu maqolalarning biri "Sukunat qo'shig'i" (19-iyun, 1966 yil) deb nomlanadi va unda A.Pritamning mashhur rus yozuvchisi Lev Tolstoy uyi va qabrini ziyorat qilish borasidagi taassurotlari aks etadi. Yana bir maqola 1967 yil yozilgan bo'lib, "Pushkinning yozilmagan she'ri" deya nomlangan.

Rossiyadan olgan taassurotlari natijasida yozilgan maqolalarida M.Gorkiy, A.P.Chexov, L.Tolstoy, A.S.Pushkin kabi adiblarni "qalam, ozodlik va inson oshiqdari", deb ataydi. Ushbu maqolalarni yozishdan asosiy maqsadi, rus adabiyotini naqadar boy merosga ega ekanligini ko'rsatib berish hamda rus adabiyoti vakillarining hind xalqiga noma'lum bo'lgan qirralarini ochib berishdan iborat. A.Pritam maqola yozishda ham adiba, ham shoira, ham faylasuf sofatida o'zining bor mahoratini ishga solib uning badiiyligini ham oshirgan.

Adibaning "Yigirma bir gulbargli atirgul" asaridan o'rin olgan maqolalarini til xususiyatlari nuqtai nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, ular tili soddaligi bilan ahamiyatli va asosan muallif tilidan bayon etilgan. O'ziga xos xususiyatlari ularning aniq dalillarga asoslanishi va ishonarliligi, tariviy va adabiy ahamiyatga ega ekanligidadir. Yana bir muhim jihati shundaki, ular qaysidir ma'noda kitobxon ommasi uchun muhim hayotiy hujjat yoki ma'lumot vazifasini o'taydi. Shunday qilib, panjob adabiyoti vakili A.Pritam maqolanavisligi milliy adabiyot rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

²⁶Ходжаева Т.А. Художественная проза Амриты Притам. (Диссертация на соискание степени кандидата филологических наук). Т. 1984.

A.Pritamning o'z ijodida O'zbekistonga alohida diqqat e'tiborini qaratganligi ma'lum. U o'zining 25 ta maqoladan tashkil topgan "Xotiralar"²⁷, kabi asarlarida O'zbekistonda yashagan vaqtlarini zavq bilan xotirlaydi.

Maqolalaridan birida O'zbekistonning tarixiy obidalarga juda ham boy ekanini hamda bu tarixiy yodgorliklarni o'z ko'zi bilan ko'ra olish imkoniyatga ega bo'lganidan xursandligini yozadi. Uning fikricha, O'zbekistondagi barcha obidalar ko'z qorachig'idek saqlanadi. Tarix avlodlarga to'laligicha yetkazilishi shart. Shoiraning fikricha Samarqand bebaho madaniyatga boy shahardir.

Qisqa satrlarda ko'p ma'noni ifodalash, aniq dalillarga tayanib ma'lumot berish va o'quvchini qiziqтира olish kabi o'ziga xos xususiyatlarning bari uning rang-barang mavzularga bag'ishlangan maqolanavisligida mujassamlangandir.

O'zbekistonga atab yozilgan maqolalari 1960 yillarda Samarqand, Buxoro va Farg'ona kabi shaharlarga sayohati davomida bitilgan.

Farg'ona vodiysini milliy matolarimiz – atlaslarni ko'rib, ulardan ta'sirlanadi va farzandlariga yo'llagan maktublaridan birida yozadi:

"Sizlarning kelajagingiz ham shu atlaslar kabi go'zal va nurli bo'lsin, duo qilib qoluvchi oyingiz".

²⁷Pritam A. Atit ki parchxaiyan (Xotiralar). – D., 1962

Muallif maqolalaridan birini O'zbek akademiyasidan olgan taassurotlariga bag'ishlaydi. Bu akademiya 1944 yil ochilganini va bu yerda nafaqat O'zbekistonga, balki butun O'rta Osiyo xalqlari, Jumladan, Hindiston Afg'oniston, Eron va Xitoy kabi mamlakatlarning tarixi ham mujassamlangani yozuvchida bu akademiyaga bo'lgan qiziqishini oshirganini yozadi. Shuningdek, Amrita Pritam akademiyaga tashrifi jarayonida u yerdagi "Boburnoma", "Akbarнома", "Jahongirнома" va "Xumoyunnoma"larni ko'rib, ular faqatgina podshoh emas shoir bo'lganlariga ham guvoh bo'lganligi haqida yozadi.

Alisher Navoiy, Jomiy, Abdurazzoq Samarqandiy va Z.M.Boburlar bizning g'ururimiz va faxrimiz ekanligiga shohid bo'ladi. Ushbu akademiyada hind va urdu adabiyotshunoslari Rabindranat Tagor, Premchand, Ali Sardor Jafri, Kishan Chandar, ismat Chug'taiyning kitoblari o'zbek tilida mavjudligi yozuvchini quvontiradi va adabiyotlarni ko'rib Amrita Pritam o'zining yurtidagi mavjud namunalar bilan taaqqoslab chiqadi. Ulardagi o'xshash va farqlar haqida maqolalari orqali yoshlarga batafsil ma'lumotlar beradi.

Muallif ta'riflayotgan voqea-hodisa haqida so'z yuritganda biroz lirik chekinish qilib, badiiy tasvir vositalarini qo'llab mavzudan chetga chiqqanday bo'ladi, keyin esa yana o'z mavzuiga qaytib uni davom ettiradi.

O'z maqolalarida o'zbek shoirlarining she'rlarini panjob va hindiy tiliga tarjima qilib, hind xalqiga tanitish barobarida, bunday adabiy aloqalar milliy adabiyotga xorij adabiyotidan kirib kelgan namunalarni yanada boyib borishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

1-bob bo'yicha xulosalar

Amrita Pritam boy adabiy merosi bilan adabiyot olamida o'z o'rniga ega bo'lgan ijodkordir. Uning asarlari 30dan ortiq tillarga tarjima qilingan. U o'z ijodida ko'proq ayollarning jamiyatdagi va oiladagi o'zni kabi mavzularni yoritgan. Biz ushbu bobda shoiraning she'riyatining o'ziga xos jihatlari, nasrchiligida ko'tarilgan mavzular, maqolanavislik rivojida tutgan o'zni haqida ma'lumotlar berishga harakat qildik. Ijodining har bir bosqichiga birma-bir to'xtalib, har bir davrning e'tiborga molik jihatlari xususida mulohazalar yuritdik.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, A.Pritam adabiyotga 1930 yillarda kirib kelgan bo'lsa-da, shoira sifatida 40 yillarda tanila boshladi. Ijodining dastlabki yillarida diniy-mistik yo'nalishdagi she'rlar yaratgan bo'lsa, keyinchalik fuqarolik pozitsiyasini aniq ifodalagan holda milliy va ijtimoiy turmush muammolari to'g'risida ijod qildi. 1960-80 yillar Amrita Pritam ijodida o'ta samarali davr bo'ldi. Uning siyosiy, iqtisodiy va ahloqiy qarashlari butkul shakllangan va o'z asarlarida, romanlari, tanqidiy maqolalarida buning aksini topgan edi. U o'zining lirik she'riyatida insonning ko'p qirrali murakkab ichki dunyosini tasvirladi.

Nasrchiligi ham lirik she'riyatining mavzularini davom ettirdi. Adiba nasriy asarlari orqali insonni hurmat qilish, ayollarni e'zozlashni targ'ib qildi, kitobxon diqqatini hind voqealaridagi dolzarb masalalarga – xotin-qizlar ozodligi, o'z baxti uchun kurash, jaholatga nisbatan murosasiz bo'linishga qaratdi.

Sermazmun va keng mushohadaga boy maqolalarini o'zida jamlagan “*Xotiralar*” va “*Yigirma bir gulbargli atirgul*” nomli asarlari ayniqsa uning naqadar yetuk ijodkor ekanligini belgilaydi.

A.Pritamning ko'p yillik mashaqqatli mehnati javobsiz qolmadi. 1956 yilda A.Pritam “Xabarlar” to'plami uchun adabiyot akademiyasi mukofotiga

sazovor bo'ldi. U bu mukofotga sazovor bo'lgan birinchi ayol edi. 1969 yilda “*Padma Shri*” unvoni bilan, 1982 yili esa “Qog'oz va yelkan” asari uchun “*Gyanpitx*” mukofoti bilan taqdirlangan. Taniqli shoir va yozuvchi Amrita Pritam 86 yoshida 2005 yil 31 oktyabr dushanba kuni vafot etdi.

II BOB. AMRITA PRITAM SHE'RIYATI(60-80 YILLAR)DA OBRAZ YARATISH USLUBLARI

Hammamizga ma'lum asarning eng muhim o'ziga xos jihatlaridan biri voqelikni obraz orqali ifoda etishdir. Ijodkor asarda o'zining ma'lum g'oyaviy-estetik maqsadini ifoda etishda, ayniqsa she'riyatda lirik qahramon ruhiyatini butun murakkabligi bilan namoyon etishda, uning xarakteri xususiyatlarini ochish maqsadida muayyan holat yoki predmetga asosiy urg'uni qaratadi. She'riyatda ana shu hodisa yoki predmet *lirik obraz*dir.

Lirik obraz yaratish ijodkorning she'riy mahoratini belgilab beradigan muhim vositalardan biri sanaladi. Yaratilgan obrazda shoiraning ruhiy olami, go'zallikni anglashi, junbushga kelgan qalb tug'yoni, olam va odamga bo'lgan qarashlari o'z aksini topadi. Albatta, lirik obraz orqali ilgari surilgan fikrning qanchalik falsafiyligi, umumbashariyligi ijodkorning iste'dodiga bog'liq.

Ana shunday iste'dod sohibalaridan biri "Panjob ovozi" Amrita Pritamdir. Uning 30-70 yillardagi nazm va nasrda qilgan ijodi birinchi bobda ifodalangani kabi o'rganilgan bo'lsa, uning 60-80 yillardagi she'riyati, ayniqsa urdu tilida chiqqan ba'zi to'plamlari umuman o'rganilmagan. Basharti biz ushbu tadqiqotimizda shoiraning ayni o'rganilmagan ijodini tadqiq etishni maqsad qildik.

Atoqli Panjob shoirasi va yozuvchisi Amrita Pritamning asosan 1960-1980 yillarda yozilgan she'rlarini o'zida jamlagan "امریتا پریتم کی شاعری" ("Amrita Pritam she'riyati") nomli she'riy to'plami 1984 yilda Dehlida bosilib chiqdi. To'plamga kiritilgan 50dan ortiq she'rlarning aksariyat qismida Panjob ayollarining sevgisi, sadoqati, vafodorligi tarannum etilgani bois, shoira ijodida ishqiy lirika yetakchilik qiladi. Tadqiqot ob'yekti sifatida tanlangan she'riy to'plamdagi she'rlarni mazmunidan kelib chiqqan holda, shartli ravishda 3 turkumga ajratdik:

1. Ayol taqdiri kuylangan *ishqiy lirika*: “Kamina”); ایک مقام (“Manzil”); خوشی (“Quvonch”); آواز (“Ovoz”); روشنی (“Yorug’lik”).

2. Hayot, inson haqidagi obrazli mulohaza mahsuli *falsafiy lirika*; خالی جگہ (“Bo’shliq”); میرے دوست میرے اجنبی (“Mening do’stim, mening begonam”).

3. *Fuqarolik lirikasi* tarannumi: میرا پتہ (“Mening manzilim”); وارث شاہ (“Voris shoh”); ایک ملاقات (“Muloqot”).

Quyida har bir turkumga kiritilgan she’rlar tarjimasi va tahlili hamda ularda yaratilgan lirik qahramonlarni ko’rib chiqamiz.

2.1. Shoiri *ishqiy lirikasida mahorat xususiyatlari*

Shu o’rinda lirika, lirik asar xususiyatlari va uning ko’rinishlari haqida to’xtalib o’tsak. Lirikaning buyuk nazariyotchisi V.G.Belinskiy ta’biri bilan aytganda, lirika his orqali turgan fikrdir.

Kishini mashg’ul etgan, to’lqinlatgan, shodlatgan, qayg’uga solgan, zavqlantirgan, hayajonlantirgan nima bo’lsa, shularning barchasini lirika o’zining qonuniy boyligi kabi qabul qiladi.²⁸

Lirik asarda obrazning harakati keng ravishda rivojlantirilmaydi, voqealar tez-tez almashib turmaydi, qahramonlar turli-tuman holatlarda, har-xil kishilar bilan bo’lgan munosabatlarda o’zini ko’rsata bormaydi. Dramatik fabula izchil ochilib bormaydi. Voqea sodir bo’layotgan sharoit, jonli harakterlarni bir-biriga qarshi qo’yish atroflicha tasvirlanmaydi.

Demak, lirikada shoiri bilan ichki kechinmalari tasvirlanayotgan shaxs, ya’ni qahramon olami birlashadi, yaxlitlashadi. Ana shu yaxlitlikdan lirik qahramon dunyoga keladi. “Lirik qahramon – lirik asarlarda kechinmalari

²⁸ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T., 2002. 477-b.

tasvirlanayotgan kishi, shoironing umumjamiyat uchun qimmatli his va fikrlarini tashuvchi shaxsdir. U shoira shaxsi bilan estetik idealning quymasidir”.²⁹

Har qanday lirik asarda hayot hodisalari, zamondoshlarning o'y-fikrlari ijodkorning shaxsiy kechinmalari orqali lirik obrazlar vositasida umumlashtiriladi. Biroq har bir ijodkor ob'yektiv voqelikni sub'yektiv tasvirlaydi, ya'ni ko'plab hayot hodisalari ichidan o'z ijodiy idealiga, yozish usuliga mos keladiganlarini saralab oladi. Bundan lirik qahramonning boshqa komponentlar bilan birgalikda har bir ijodkorga xos bo'lgan o'z uslubi bilan chambarchas aloqadorligi masalasi kelib chiqadi.

Uslub tushunchasiga kelsak, masalasi ijtimoiy voqealikka she'riy munosabat bildirishning o'ziga xosligi, dunyoqarash, mavzu tanlash, obraz yaratish, mahorat masalalari bilan bevosita bog'lanib ketadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar quyida tarjima va tahlil qilingan she'rlar misolida o'z aksini topadi. Biz tadqiqot ishi ob'yekti sifatida tanlab olgan she'rlarni uch bosqichda o'rganib chiqdik. Eng avval mansur (so'ma-so'z) tarjima, undan so'ng to'g'rilangan varianti va eng so'ngida manzum ya'ni, badiiy tarjima qildik.

“خوشی” (“*Quvonch*”)³⁰ she'rida jafokash yor obrazi

A.Pritamning “*Quvonch*” she'rida ayriliqning lirik qahramon qalbida qoldirgan jarohatlari o'tli, shiddatli, da'vatkor misralarda ochib berildi:

دور کہیں سے آواز آئی آواز جیسے تری ہو
کانوں نے گہری سانس لی، زندگی کی لڑی کانپ اٹھی
معصوم خوشی ہاتھ چھڑا کر دونوں ننھی باہیں پھیلا کر
ایک دوشیزہ کی طرح ننگے پاؤں بھاگ اٹھی

Qayoqdandir keldi ovoz – ovoz go'yo ko'ngil bodasi

²⁹Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T., 1980. 252-b.

³⁰Pritam A. Amrita Pritam ki shairi. 1984. 142-b.

Quloqlar xo'rsindi biroz, tebrandi hayot shodasi

Ma'sum quvonch zorlanib, quloqlarin yoydi shoshib

Bokira bir qizga o'xshab, uzoqlarga ketdi qochib

پہلا کانٹا سنسکار کا، دوسرا کانٹا لوک لاج کا
تیسرا کانٹا دھن دولت کا، خطرے جیسے کنتے کانٹے
تلووں سے کانٹے نکالتی، پور دبائی لہو صاف کرتی
میلوں، کوسوں لنگڑاتی ہوئی معصوم خوشی وہاں آپہنچی

1-tikan botdi nasabga, 2-tikan hayoga sanchildi,

3-tikan boylikga bo'lsa, xayf-xatar qancha tikani

Ehtimol dardim chiqarar, balki qonni tozalaydi

Ma'sumlik to'la quvonch tobora uzoqni ko'zlaydi

اگلا پاوں آگے کو بڑھے، پچھلا پاوں پیچھے کو مڑے
آواز جیسے بالکل تیری، نظر جیسے نالکل بیگانگی
حیرت کا تلخ کانٹا ایڑی میں اس طرح چھ گیا
عقل علم کے ناخن ہار گئے، جانے کانٹا کہاں تک اتر گیا

Oldingi oyoq intilsa oldinga, boshqasi qayrilar devona

Ovoz go'yo butkul seniki, nigoh go'yo tamoman begona,

Hayratning achchiq tikani vujudimga shundayin sanchildi

Lol qolgan aql hayratda, alamga qandayin yengildi.

سارا پاوں سوچ گیا ہے، زہر سا پھیل رہا ہے
حیران، پریشان زمین پر بیٹھی معصوم خوشی رو اٹھی ہے۔

Zaharlangan butun tanam titrab ketdi nogahon

O'ltirib yig'lab yubordi ma'sumlik to'la quvonch hayron.³¹

She'r tahlili mezoni turlari haqida xilma-xil qarashlar mavjud. Shundan hozircha to'rttasi ilmda qabul qilingan: a) ommaviy; b) ilmiy; v) qomusiy; g) ta'limiy.

³¹ Dissertatsiyada keltirilgan she'riy iqtiboslar magistrant tomonidan tarjima qilingan

She'rshunoslikda nazmiy asar tahlili mezoni unsurlari esa quyidagicha (*albatta nisbiy*) belgilangan: a) she'r mavzusi; b) g'oyaviy yo'nalishi; d) falsafiy asoslari; e) lirik qahramon; f) badiiy xususiyatlari; g) zamonaviyligi; h) she'riyat taraqqiyotidagi o'rni. Asarda ifodalangan obraz holatini ko'rsatib berish ilmiy tahlil orqali, yuqoridagi unsurlar asosida amalga oshirildi. Ilmiy mavzu qaysi muammoga bag'ishlansa, she'r ham ana shu mavzuga moyil tahlil qilinishi nazarda tutilgan holatda, tahlilda ko'proq lirik obraz masalasiga e'tibor qaratildi.

Ushbu she'rda asosiy lirik qahramon ayriliq azobida ezilgan, qalbi dard-alam bilan to'lgan sevgan yor obrazi. Bizga ma'lum, she'rni jonlantirishda asos bo'ladigan omillardan biri – ohang. Uning “Quvonch” she'rida ohang bir o'zgacha, odatdagi she'rlar ohangidan butkul farq qiladi – bu ichki ohangdir. A.Pritam she'rdagi har bir so'zga ichki ohang yuklash orqali tashqi go'zallikdan voz kechadi.

She'r orqali bizga aytadigan his-tuyg'ulari ayrilish, iztirob, qandaydir noaniq umidga intilishi asarni ta'sir doirasini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari hijron, sevgi, muhabbat, armon, sog'inish kabi hissiyotlar ham bor. *Masalan:*

دور کہیں سے آواز آئی آواز جیسے تری ہو

کانوں نے گہری سانس لی، زندگی کی لڑی کانپ اٹھی³²

Qayoqdandir keldi ovoz – ovoz go'yo ko'ngil bodasi

Quloqlar xo'rsindi biroz, tebrandi hayot shodasi

O'z sevgilisidan ayrilish holatini ushbu asar **mavzusi** sifatida ko'rsatishimiz mumkin. She'rdagi **g'oya** esa ma'sum to'la quvonch qanday ekanligi, nimalarda namoyon bo'lishi, ijodkor ma'sum to'la quvonch deganda nimani nazarda tutgani kabi savollar javobi talqinida o'z aksini topadi.

She'rni mutolaa qilarkansiz yana bir savol tug'ilishi tabiiy. Nimaga ma'sum to'la quvonch...? Ehtimol, hayron bo'lgandirsiz, quvonchda ma'sumlik

³² Pritam A. Xushi, Amrita Pritam ki shairi. 142-b.

nima qilsin? Lirik qahramon ma'sumligi nimalarda nomoyon bo'ladi? Uning quvonchi qani?

A.Pritam qahramoni yorining birgina ovozini eshitishga mushtoq, quloqlari ostida o'sha tanish ovoz jaranglayveradi.

دور کہیں سے آواز آئی آواز جیسے تری ہو³³

Qayoqdandir keldi ovoz – ovoz go'yo ko'ngil bodasi

Yoki boshqa bir misrani ko'raylik,

آواز جیسے بالکل تیری، نظر جیسے نالکل بیگانگی³⁴

Ovoz go'yo butkul seniki, nigoh go'yo tamoman begona

Yuqoridagi misradan anglashiladiki, ovoz tanish bo'lsada, nigoh begona ekanligi qahramon quvonchi ma'sumlik bilan sug'orilganidan dalolat beradi. Uzoq muddat ayriliq sababli sevgan yori nigohi begonalashgani quvonchga ma'sumlik qo'shadi.

Biz ushbu she'rni chuqurroq tushunishga harakat qilganimizda hayotning ob'yektiv manzarasi tasviri keyingi planga ko'chgani, muallifning tasvir ob'yektiga munosabati birinchi planga chiqqanining guvohi bo'ldik. Lirik qahramon hayotining qaysi bosqichiga mana shu holat to'g'ri keladi, uning hayotini qaysi voqeligiga aloqador ekanligi esa bizga noma'lumligicha qolmoqda. She'riy nutq – hayajonli, to'lqinli, ehtirosli g'ayri oddiy nutqdir.

Muallif oddiy holatni emas, favqulotda holatni, qattiq hissiyotni, hayajonli ruhiyatni ifoda etadi.

Ma'sum to'la quvonch bokira qizaloqqa o'xshatilmoqda. Ushbu misra orqali shoira bokira qizaloq kabi sof, pokiza va beg'ubordir ma'sum to'la quvonch demoqchi nazarimizda. Yuqoridagi tahlildan anglashiladiki, shoiraning eng sara she'rlarida oddiy gapdek tuyulgan har bir so'z, xatto tinish belgisi she'r oldiga qo'yilgan ijodiy niyatni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

آواز (“Ovoz”)³⁵she'rida armon mavzusi

³³ Pritam A. Xushi. 142-b.

³⁴ O'sha yerda

برسوں کی رہیں چیر کر آج تیری آواز آئی ہے
سسی کے پیروں کو جیسے کسی نے مرہم لگایا ہے
آج کسی کے سر پر جیسے ہما گزر گیا
چاند نے رات کے بالوں میں جیسے پھول ٹانگ دیا

*Yillar oydek tez o'tib, sendan darak keladi,
Go'yo Sassi³⁶ poyiga kimdir malham surgandek
Bugun kimning boshiga bilmam Xumo qo'nadi,
Oy tunning sochlariga go'yo gullar sochgandek.*

نیند کے ہونٹوں سے جیسے جواب کی مہک آتی ہے
پہلی کرن جیسے رات کی مانگ میں سیندور بھرتی ہے
برایک حرف سے تیری مہک آتی رہی
محبت کے پہلے گیت کی پہلی سطر گاتی رہی

*Uyquning lablaridan javob nido keladi,
Go'yo ilk nurga o'xshab tunga sindur surgandek
Har bir satr balki sendan xabar beradi
Go'yo ishqdan oldin uning kuyi kelgandek*

حسرت کے دھاگے جوڑ کر ہم اوڑھنی بنتے رہے
برہا کی ہچکی مین بھی ہم شہنائی کو سنتے رہے

*Ishq ahli armondan o'zga libos yasadi
Go'yo ayriliq ham kelibla qolgandek.*

She'rdagi asosiy qahramon – yor obrazi. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu she'r yaxlit holda lirik qahramon ruhiyatining muayyan holatini o'zida aks ettiruvchi poetik timsoldir. Qolaversa, Sassi va Xumo obrazlari ham bo'lib, Xumo afsonaviy qushi baxt keltiruvchi ramzdir.

³⁵PritamA. Amrita Pritam ki shairi. 136-b.

³⁶ Sassi va Punnu Panjob xalq og'zaki ijodida keng qo'llanilgan obraz (Farxod va Shirin kabi).

She’rda sevgi, muhabbat, armon, sog’inish, ayriliq, hijron kabi hissiyotlar bor. *Masalan:* sevgidan sarhush ayolning sog’inchi, yoridan ajralish azobi, ayriliq natijasida hijron azobi.

She’rni yanada go’zal ifodalash hamda kitobxonga milliy ruh berish maqsadida hind xalq milliy an’analari ham keltirib o’tilgan. *Masalan:*

پہلی کرن جیسے رات کی مانگ میں سیندور بھرتی ہے³⁷

Go’yo ilk nurga o’xshab tunga sindur surgandek

Sindur – bu hindlarning an’anaviy, ramziy belgisi hisoblanadi va u qizil rangda bo’ladi. Sindur peshonaning yuqori qismiga suriladi va sindur surgan ayol oilali hisoblanadi. Shoiri oddiy xalq uchun tushunarli bo’lgan tilda milliy belgilarni ifodalashga harakat qiladi.

Obraz holati: Lirik qahramon parishon, u iztirob chekmoqda. U yorini sog’ingan. Shoiri o’z she’rlarida lirik qahramon sifatida yor obrazini tanlagan va she’r yanada ta’sirchan chiqishi uchun kundalik hayotdagi so’zlardan mohirona foydalangan.

پہلی کرن جیسے رات کی مانگ میں سیندور بھرتی ہے³⁸

Go’yo ilk nurga o’xshab tunga sindur surgandek

Yuqoridagi misrada *ra:t*, ya’ni *tun* so’zi ishlatilgan. Barcha shoiralar kabi Amrita Pritam ham ayriliqni *tun* so’ziga qiyoslagan. Go’yoki tundagi qorong’ulik, sokinlik, zulmat yoridan ajralish ya’ni ayriliq azoblarida kuyib-yongan oshiq kayfiyati bilan qiyoslanmoqda.

مقام *Manzil*³⁹ **nomli she’rida yorga sadoqat mavzusi**

قلم نے آج گیتوں کا قافیہ توڑ ڈالا
میرا عشق یہ کس مقام پر آ گیا ہے
دیکھ نظروالے تیرے سامنے بیٹھی ہوں
میرے ہاتھ سے ہجر کا کانٹا نکال دے

³⁷ PritamA. Avaz, Amrita Pritam ki shairi. 136-b.

³⁸ O’sha yerda

³⁹ Pritam A. Ek maqam, Amrita Pritam ki shairi. 130-b.

Qalam netay she'r qofiyasin bo'lib tashladi
Ishqim meni neder manzil tomon boshladi
Qara, ko'r axir men sening yoningdaman,
Qalbimdan ayriliq tikanin chiqarib tashladi.

جس نے اندھیرے کے علاوہ کبھی کچھ نہیں بنا
وہ محبت آج کرنیں بن کر دے گئی
اٹھو، اپنے گھڑے سے پانی کا ایک کٹورا دو
راہ کے حادثے میں اس پانی سے دھولونگی

Xuddi qorong'ulik oramizga qo'shilganday
Muhabbatimiz shu sabab tamom bo'lganday,
Kel, sopol ko'zangdan bir kosa suv ber
Yo'l mojarosida men qo'limni yuvganday.

Bu she'rda sevgi, muhabbatni tamom bo'lgan vaziyatda ham undan ayrilgisi kelmayotgan oshiq obrazi.

Asarda muhabbat, armon, ayriliq, hijron kabi hissiyotlar mavjud. Chunki she'rdagi obraz yoridan ayrilishni xohlamayotgan va muhabbatini bir umr o'zida saqlab qolishni istayotgan qahramondir.

Ramziy belgilar: Muallif obrazni to'laqonli shakllantirish va chuqurroq ko'rsatib berish uchun ramziy belgilardan ham foydalangan. *Masalan:*

اٹھو، اپنے گھڑے سے پانی کا ایک کٹورا دو⁴⁰

Kel, sopol ko'zangdan bir kosa suv ber

Ko'za to'la suv – bu yerda ishonch va muhabbatni qaytarish ramzi bo'lib, uning bir tomchisiga ham lirik qahramonimiz tashna va u juda ojiz.

راہ کے حادثے میں اس پانی سے دھولونگی⁴¹

Yo'l mojarosida men qo'limni yuvganday.

⁴⁰ Pritam A. Amrita Pritam ki shairi. 130-b.

⁴¹ O'sha yerda

Yo'l mojarosi – shoira sevgi va muhabbat yo'llari, tushunmovchilik, kelishmovchilik, ayriliq kabilarni, o'ylashimizcha, mojaro deb atagan. Xullas, qahramonimiz muhabbatni ketishini istamaydi, uni bag'riga bosib ayrilmoqchi emas.

She'rni ta'sir doirasini kengaytirish maqsadida *qorong'ulik, yo'l, mojaro* kabi an'anaviy obrazlar barobarida *qalam, tikan, ko'za* kabi ramziy ma'no kasb etuvchi individual obrazlar ham kashf etdi. Uning "Manzil" she'ri noan'anaviy obrazlarni havotiy bir voqea, tushuncha va predmetlar ifodasi uchun qo'llaganligi, ular vositasida takrorlanmas poetik timsollar yaratganligi bilan harakterlidir.

روشنی ("Yorug'lik")⁴² she'rida ayriliq ifodasi

ہجر کی اس رات میں کچھ روشنی سی آ رہی ہے
شائد یاد کی بتی کچھ اور اونچی ہو گئی ہے
ایک حادثہ، ایک زخم اور ایک درد دل کے پاس تھا
رات کو ستاروں کی رقم انہیں ضرب دے گئی

Ayriliqning bu kechada yorug'ligi kelmoqda

Ehtimol, xotira shami sekin ko'tarilmoqda,

Bir hodisa, bir yara va bir dard bor dilimda

Tunning yulduzlari unga tinmay zarba bermoqda.

نظر کے آسمان سے سورج کہیں دور چلا گیا
پر اب بھی چاند میں اس کی خوشبو آ رہی ہے
تیرے عشق کی ایک بوند اس میں مل گئی تھی
اسی لئے میں نے عمر کی ساری کڑواہٹ پی لی

Osmon nazarida quyosh qayergadir ketmoqda

Ayni shul dam ham oyda uning isi kelmoqda,

Ishqing bir tomchisi meni ado aylaganda

Qalbim umrning butun achchig'ini ichmoqda.

⁴²Pritam A. Raoshni, Amrita Pritam ki shairi. 132-b.

She'rdagi asosiy lirik qahramon o'z yorini sog'ingan va ayriliq azobida ezilgan, qalbi dard-alam bilan to'lgan oshiq obrazi ya'ni muallif o'z kechinmalarini lirik qahramon orqali aytib bergan.

Yorug'lik, sham, yara, tun, yulduz, osmon, quyosh, oy, umr kabi obrazlar ham mavjud.

Bu she'rni o'qigan har bir kitobxon fikrlaydi, hayratga tushadi, ayol qalbining sofliqi, uning sevgisini, kelajakka doimo umid bilan qarashini tushunib yetadi. Shoir sevgi-sadoqat, vafo o'zaro qadr-qimmat, ayol qalbining naqadar pok bo'lishini va insoniy fazilatlarni yoritishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi va bunga erishdi ham. She'rda sevgi, muhabbat, armon, sog'inish, ayriliq, hijron kabi hissiyotlar bor. Lirik qahramon parishon, iztirob chekmoqda. U yorini sog'ingan.

نظر کے آسمان سے سورج کہیں دور چلا گیا⁴³

Osmon nazarida quyosh qayergadir ketmoqda

Ushbu misrada mahbubidan ayrilgan mahbuba quyoshsiz osmonga o'xshatilmoqda.

Lirik qahramon o'zining inkor etilgan, javobsiz qolgan sevgisi tarixini hech nimani yashirmasdan to'kib soladi. U yonib, otashin ehtiros bilan sevganu, biroq ko'ngil shishasi "yo'q", degan birgina so'zdan chil-chil singan. Mana shundan uning dunyosi qorong'u. Vujudini g'am, anduh o'rab olgan, kayfiyati tushkun, qalbi yolg'iz o'tgan butun umrini zahrini ichmoqda.

Amrita Pritamning lirik qahramoni o'zi haqida ham, o'zgalar haqida ham ayovsiz, shafqatsiz haqiqatni arzi hol etuvchi lirik qahramondir.

Lirik qahramon butun qalb bag'ishlangan, bor vujud fido qilingan muhabbatnigina tan oladi. Shu bilan birga "chiroy olamining tengsiz sayqali" bo'lgan go'zallik, malak siymolar daf'atan yurakdan g'am-alamni ketkazib,

⁴³ Pritam A. Raoshni. 132-b.

samoviy hislarga cho'mdirsa ham estetik kategoriya sifatida go'zallikning ichki mohiyati, pari ruxsorning ma'naviy olami birlamchi o'rinda turadi.

Shoira nazdidagi sevgi talqini, vafo va sadoqat tushunchalari hind xalqi ma'naviy qadriyatlari, milliy urf-odatlar chashmasidan suv ichadi.

Yuqorida tahlilini ko'rganimiz barchasi ishqiy lirikasiga mansub she'rlar bo'lib, ularda falsafiy chuqurlik bor. A.Pritam yutuqlarining asosiy sabablaridan biri uning asarlarida, xususan yuqorida tahlil qilingan she'rlarida sabr-toqatda tengsiz, nihoyatda tuyg'ularga boy hind ayolining jonli ifodasini bera olganidadir. She'r qahramonlari misolida ayollar sevgisining naqadar pokligi, boy ichki olami bepoyon ekanligi ko'rinadi.

2.2. Shoira falsafiy lirikasida poetik mahorat

Chuqur falsafiylik, butun bir she'rning vaqt va zamon, inson va tabiat munosabatlari zamiriga qurilishi, har bir satrda chā'nab turgan tafakkur yog'dulari singari shoiraning butun ijodiga xos xususiyatlar 60-80 yillarda yozilgan دعوت ("Da'vat" *tun da'vati bayoni*), آگ کی بات ("Olovning gapi" *inson va borliq masalasi haqida*), ایک نظر ("Bir nazar" *o'lim va hayot to'g'risida*), "O'y" (ایک سوچ), "Mening do'stim, mening begonam" (میرے دوست میرے اجنبی), "Bo'shliq" (خالی جگہ) kabi she'rlarda izchil davom ettirildi.

Shoiraning biz tadqiq qilgan davrdagi ijodida ma'naviyatni yuksaltirishga, ruhiyatni poklashga xizmat qiluvchi sarbon tuyg'ular yanada tiniqlashdi, falsafiy ruhi kuchaydi, ko'lami kengaydi. Bunga uning quyidagi she'rlari misol bo'la oladi.

"Mening do'stim, mening begonam"⁴⁴ میرے دوست میرے اجنبی

Bir safar to'satdan kelding

ایک بار اچانک تو آیا

⁴⁴ Pritam A. Mere dost mere ajnabi, Amrita Pritam ki shairi. 66-b.

nogahon

*Turib qolding o'sha vaqt xonamda
hayron*

*Quyosh shomda botmoqqa
chog'lar begumon*

Lekin bota olmay qildi to'polon

Go'yo bir muddatga unutdi nahot

Mangulik taomili ko'tardi faryod

*O'tgan daqiqalarni vaqt yodiga
oldi*

*Hayajonla derazadan boqqancha
qoldi*

O'tgan, turgan daqiqalar voqealari

Hozir senga tuyular ajib

Balki, menga ham

*Ehtimol vaqtga ham bu xato emas
ma'qul*

*Endi quyosh har kun botar o'zin
vaqtinda*

*Qorong'ulik esa har kun tushar
mening ko'ksimda*

*Lekin ushbu onlarning bordir bir
haqiqati*

*Endi sen va men tan olamiz yoki
yo'q*

Bu masala boshqa hilqati

Lekin o'sha kun

Vaqt mo'ralaganda derazadan

Uning qon oqayotganda tizzasidan

Mening derazam ostida

U bugun ham muzlab qolgan

تو وقت میرے کمرے میں حیران کھڑا رہ
گیا

شام کا سورج ڈوبنے کو تھا

مگر ڈوب نہ سکا

جیسے پل بھر کو اس نے ڈوبنے کا
نوشتہ بھلا دیا

پھر ازل کے دستور نے ایک دبائی دی

اور وقت نے بیتے لمحوں کو ایستادہ
دیکھا

اور گھبرا کے کھڑکی سے چھلانگ لگا
دی

بیتے، کھڑے لمحوں کا واقعہ

اب تجھ کو عجیب لگتا ہے

اور مجھ کو بھی

اور شائد وقت کو بھی پھر وہ غلطی گوارا نہیں

اب سورج روز وقت پر ڈوب جاتا ہے

اور اندھیرا روز میری چھاتی میں اتر جاتا ہے

پر ان لمحوں کی ایک سچائی ہے

اب تو اور میں مانیں، نہ مانیں

یہ الگ بات ہے

لیکن اس دن

وقت نے جب کھڑکی سے چھلانگ لگائی تھی

اور اس کے گھٹنوں سے جو خون رساتھ

میری کھڑکی کے نیچے

وہ آج بھی منجمد ہے

Dastlab ushbu she'r sarlavhasiga nazar tashlasak, “*Mening do'stim, mening begonam*”... Shoiri do'st deganda kimni nazarda tutgan? Kim begona. Fikrimizcha, sevikli yor do'st deya ta'riflanib, ayriliqdan so'ng begona bo'lganligi nazarda tutilgan. Sevgilisidan qandaydir sabablarga ko'ra ayrilish holati o'zgacha o'xshatishlar bilan tasvirlangan. Bu she'rda ham uning ko'plab boshqa asarlariga o'xshab hijron motivi tabiat hodisalari orqali ko'rsatilib, rang-barang obrazlar yaratilgan. Ikki sevishtan qalbning ajralishidan xatto har kun o'z vaqtida botmoqqa chog'langan quyosh ham o'z vazifasin unutib qo'ygandek tasvirlangan.

45 (“Bo'shliq”) خالی جگہ

صرف دو مملکتیں تھیں

ایک نے مجھے اور اسے بے دخل کر دیا تھا

دو سری کو ہم دونوں نے ترک کر دیا تھا

Bor edi bor yo'g'i ikki mamlakat

Biri meni undan ayirdi faqat

Ikkinchisin biz ikkimiz tark etdik

برہنہ آسمان تلے

جانے کب تک میں بدن کی برسات میں بھیگی

جانے کب تک وہ تن کی بوچھاڑ میں گلتا رہا

Bo'm-bo'sh osmon ostida

Qachongacha men tana jalasida ivib yurdim kim bilsin

Qachongacha u tanasin to'kilishida yurar nima qilsin

پھر ایک عمر کی چاہ کو، وش کے گھونٹ کی طرح پی کر

اس کے لرزاں ہاتھ نے میرا ہاتھ تھام لیا

Yutib zahar qultumidek bir umrlik xohishim

Uning titroq qo'llari tutdi mening qo'llarim

⁴⁵ Pritam A. Xali jagah, Amrita Pritam ki shairi. 10-b.

آؤ! لمحوں کے سر پر ایک چھپر ڈالیں
وہ دیکھو دور ---- وہاں ----
سچ اور جھوٹ کے درمیاں کچھ جگہ خالی ہے

Kel, sayr qilaylik vaqt olamida

Uni qarang – uzoqlarda... u yerda...

Biroz ovora bo'shliq rost va yolg'on o'rtasida.

A.Pritamning Panjob bo'linishi *mavzusiga* bag'ishlangan ushbu falsafiy she'ri rang-barang g'oyalar aks etganligi bilan ajralib turadi. Daf'atan she'rning falsafiy qirralarini, ma'no-mazmunini, g'oyasini ilg'ab olish oson emas. Shoir o'y-fikrlarini ifodalashda birmuncha murakkabroq yo'ldan boradi. Shoiraning butun she'riyati singari falsafiy lirikasi ham o'ziga xosligi, teranligi, tuyg'ularning tabiiyligi bilan ajralib turadi.

Siyosiy masalalarga aloqador misralardan kelib chiqib, siyosiy-falsafiy she'r desak bo'ladi. Ko'zlangan mavzuni ham ayol, ham siyosatchi, ham shoir sifatida ochib berdi.

Birinchi uchlikda bo'linish tasvirlangan bo'lsa, keyin bo'linishdan keyingi azoblanish holati, kulminatsiya she'r yakunida, ya'ni tinchlik orzusi. Rost va yolg'on o'rtasida biroz bo'shliq, ya'ni mavhumlik mavjud. Bo'linish haqiqatga asoslanganmi yoki yolg'on. Yechim esa kitobxonga havola etiladi.

Lirik qahramon tushunchasini aniqlashda har bir shoiraga xos bo'lgan ijodiy individuallikdan, hayotni tasvirlashning faqat har bir shoiraga xos bo'lgan tamoyillaridan kelib chiqqan ma'qul. Amrita Pritam she'rda ko'pincha "men" nomidan gapiradi. Biroq shoiraning fuqarolik lirikasida "meni" doirasi torlik qilib qolishi, shoir ma'lum bir guruhning, xalqning nomidan so'zlaganligi, faqat o'z iztiroblarini she'rga solish bilan cheklanmaganligini yuqoridagi she'rlar tahlili misolida guvohi bo'ldik. Biroq masalaning yana bir jihati shundaki, shoir bevosita o'z boshidan o'tmagan "betaraf" kechinmalarni ham uni aynan o'z kechinmalari sifatida, chuqur falsafiy mushohada yuritgan holatda berishga

intiladi va bunga ko'p holda muvaffaq bo'ladi. Demak, shoiraning lirik "meni", birinchi navbatda, shoiraning o'zi, ayni zamonda umumlashma obraz sifatida namoyon bo'ladi.

Maromiga yetgan poetik mahorat yetuk ijodkorlargagina xos bo'lib, ular ijodining avval-boshidanoq shakllanadi, bu o'ziga xos she'riy uslub keyinchalik faqat takomillashib, muammallashib boradi. Aniq bir obrazdan falsafiy mushohada tomon borish, odatiy bir holning ichki ma'nosini ko'ra bilish Amrita Pritamning falsafiy lirikasi uslubi uchun xosdir.

2.3. Amrita Pritam fuqarolik lirikasi

Ikkinchi jahon urushi davri... Siyosiy vaziyat tobora murakkablashib bormoqda edi. 1947 yil 15 avgustda Hindiston mustaqil bo'ldi. Lekin bu mustaqillik ularga qimmatga tushdi. Chunki natijada Hindiston ikkiga bo'linishi kerak edi, ya'ni musulmon Pokistoni va hindlar Hindistoni. Yangi chegara Panjobni qoq ikkiga bo'ldi, uning bir qismi Pokistonga, bir qismi Hindistonga o'tib ketdi. Panjobga o'rnatilgan diniy jamoalardan bo'lgan musulmon sikhlar va hindlar orasida qon-qardoshlik qirg'inlari kuchayib ketdi. Mamlakatdagi siyosiy holat va bo'linish adabiyotga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi va yangi mavzular olib kirdi.

40-50 yillarda keng tarqalgan dunyo xavfsizligi uchun kurash tarafdorlari Sadjat Zahir, Yashpal, Mulk Raj Anand, Gurbaxsh Singxlar Hindistonda keng yoyildi. Bular qatorida Amrita Pritam ham bor edi.

Adabiyotshunos T.A.Xodjayeva ta'kidlashicha, urush voqealarining borish jarayoni, xalq ozodlik harakatlari to'liqlinining o'sishi, 1943 yildagi Bengaliyadagi ochlik - bularning barisi Amrita Pritam ijodida o'z aksini topdi va barchani larzaga soldi. U yangi davr yangi estetik qarashlarni talab qilishini yaxshi tushunar edi. Uning ijodida real hayot voqealarini haqqoniylik bilan

tasvirlash asosiy o'rinni egalladi. Zamonaviylikning eng dolzarb muammolarini, fikr va tuyg'ularning yangi dunyosini muqaddaslashtirilgan diniy an'analarga solib bo'lmadi. Shoir izhor etishning yangi formalarini topdi va talabiga javob bera oladigan zamonaviy, erkin turdagi qofiyalash usulini tanladi.⁴⁶

Amrita "Adi Grantx"ni, o'z asarlarida panjob xalqining hinduizm va musulmon feodallariga qarshi kurashlarini tasvirlagan faylasuf olim Govind Singxning "10 guru haqidagi kitobi" asarini, XIX asrning vatanparvarlik ruhidagi epik asarlarini o'rgandi. Bu boy adabiy merosdan ayniqsa Kaledas, Voris shox asarlari uni to'lg'inlantirdi.⁴⁷

A.Pritam o'zining fuqarolik lirikasida insonning ichki dunyosini tasvirlash barobarida, fuqarolik pozitsiyasini aniq ifodalagan holda ijtimoiy turmush muammolari to'g'risida she'rlar yarata boshladi. Shoiraning Panjob bo'linishi natijasida kelib chiqqan muammolar va urush sababli yuz bergan dahshatli voqealarga bag'ishlab yozgan asarlariga "Uzundan uzun sayohat", "Doktor Dev", "Qafas", "Sahar chog'i", "Panjob ovozi", "Xabar" kabilarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Darhaqiqat uning "Voris shoh"⁴⁸ she'ri chin ma'noda xalq dardini kuylagan va aziyat chekkan yuz minglab ayollar madhiyasi desak, mubolag'a bo'lmaydi, shuning uchun ushbu she'r nafaqat butun Hindistonda, balki Pokistonda ham mashhur bo'lib ketdi. Shoir Panjob ijtimoiy-siyosiy hayotida ro'y berayotgan muammolarga javob izladi va ushbu she'ri qalbini qiynoqqa solgan muammolar ifodasi sifatida dunyoga keldi.

آج وارث شاہ سے کہتی ہوں اپنی قبر میں سے بولو
اور عشق کی کتاب کا کوئی نیا ورقہ کھولو
پنجاب کی ایک بیٹی روئی تھی، تو نے اس کی لمبی داستان لکھی
آج لاکھوں بیٹیاں رو رہی ہیں وارث شاہ!
تم سے کہہ رہی ہیں

⁴⁶ Xodjajeva T.A. Panjob Adabiyoti. – T.: TDSHI nashriyoti, 2014. 44-b.

⁴⁷ Ходжаева Т.А. Художественная проза Амриты Притам – Т.: ТашГИВ, 2007. С.21

⁴⁸ Pritam A. Varis Shah, Amrita Pritam ki shairi. 114-b.

اے درندوں کے دوست، پنجاب کی حالت دیکھو
 چوپال لاشوں سے اٹا پڑا ہے، چناب لہو سے بھر گیا ہے
 کسی نے پانچوں دریاؤں میں زہر ملا دیا ہے
 اور یہی پانی دھرتی کو سینچنے لگا ہے!
 جہاں پیار کے نغمے گونجتے تھے، وہ بانسری جانے کہاں کھو گئی
 اور رانجھے کے سب بھائی بانسری نجانا بھول گئے!
 وارث شاہ! میں تم سے کہتی ہوں، اپنی قبر سے اٹھو
 اور عشق کی کتاب کا نیا ورقہ کھولو۔

Voris shoh⁴⁹ tingla dardim – qabringdan so'zla!

Ishq kitobin soz varog'in ochmoqni ko'zla

Panjobning munis qizi alamla yig'lar,

Sen uning dard dostonin yozmoqni o'yla

Bugun millionlab qizlar faryodla yig'lar

Voris shoh! Senga ular nola aylarlar –

Ey do'sti ezilganlar, ko'r Panjobning holatin

Supalarni o'liklar jasadila to'ldirarlar,

Chinob⁵⁰ku to'lib bo'ldi qon bilan allaqachon

Kimdir besh daryo⁵¹ni qonla to'ldirar hamon,

Ayni manashu suvla sug'orilmoqda yerlar!

Endi qayerda she'rdan taronalar eshitarlar

Uning kuychilari allaqayerga yo'qoldi bedod

Ranjhu⁵² akalari nay chalishni unutdi hayhot!

Voris shoh tingla dardim – qabringdan so'zla,

Ishq kitobin soz varog'in ochmoqni ko'zla...!

⁴⁹XVIII asr mashhur shoiri

⁵⁰ Panjobdan oqib o'tadigan daryo nomi

⁵¹ Panjob – («panj»besh, «ob»daryo) besh daryo o'lkasi bo'lgan: Rovi, Bias, Chinob, Jelam va Satlej hudud nomini belgilagan. Shoir ushbu misrada Panjob qonli holatda qolganligini nazarda tutgan

⁵²Panjob eposi qahramoni (Sita kabi)

Yuqoridagi misralardan ko'rinib turibdiki, muallif o'z his-hissiyotlarini emas, aksincha ona yurti, Panjob xalqini boshiga tushgan kulfatni alam bilan qalamga olgan, nohaqlikdan ezilgan, o'z yaqinlaridan birin-ketin ajralayotgan hamyurtlarining fojeasiga befarq emasligini qonli mislarda bayon etgan. She'rni mutolaa qilarkansiz voqealar monologik bayon qilinganligi, ya'ni shoiraning Voris shohga murojaatiga guvoh bo'lasiz.

Voris shoh tingla dardim – qabringdan so'zla!

Ishq kitobin soz varog'in ochmoqni ko'zla

Savol tug'iladi, nima uchun aynan Voris shoh?, Voris shoh o'zi kim? Amrita Pritam XVIII asrning vatanparvarlik ruhidagi asarlarini qiziqish bilan o'rgangan, X. Barxudar davomchisi Voris shoh ham ana shu davrning buyuk ijodkorlaridan hisoblanadi, shoiraning asarlaridan ilhom olgan, ehtimol shuning uchun Voris shohni obraz sifatida tanlagan.

She'rga chuqurroq nazar tashlasak, har bir baytda mustaqil fikr aks ettirilganini guvohi bo'lamiz. Baytlararo munosabat saqlangan holatda she'r markaziga borganda asosiy g'oyani topish mumkin, ya'ni:

Ey ezilganlar do'sti, Panjob holatini ko'r

Supa o'liklar jasadi bilan to'lib ketdi,

Quyidagi baytda esa g'oyaning kulminatsiyasi ko'rinadi.

Chinobku to'lib bo'ldi qon bilan allaqachon

Kimdir besh daryoni qonla to'ldirar hamon

Mamlakat bo'linishi natijasida Panjobda yashagan hindu musulmonlarning bir-birini qonini to'kkanligi, beshavqat va ayovsiz qirg'inlar ko'rsatilgan ushbu misralar inson dilini o'rtantirib yuboradi, shoiraning mahorati, ayniqsa she'rning mashhur bo'lishini ta'minlovchi omil uning qay darajada jonli, haqqoniy hamda dildan o'kinch bilan yozilganligidir.

Ayni mana shu suvla sug'orilmoqda yerlar!

Endi qayerda she'rdan taronalar eshitarlar

Uning kuychilari allaqayerga yo'qoldi bedod

Ranjhu akalari nay chalishni unutdi hayhot!

A.Pritam she'riyatining noan'anaviyligi dard to'la misralarni o'zgacha o'xshatishlar bilan hamda o'zi boshidan o'tkazib, his qilib (*ayni shu davrda qo'lida bir kichkinagina chamadon bilan Gujranvala(Panjob)dan Dehliga piyoda kelgan*) ifodalaganligida ko'rinadi. Shoiralar yerlar qon bilan sug'orilayotganligi, xalqning ko'ngliga endi hech qanday o'yin-kulgu sig'masligi, xatto sozandalar chalishni yodidan chiqara yozganini keltirib, bo'linish natijasi qay darajada daxshat ekanligini va Panjob xalqining boshiga ne kunlarni solganligini ta'kidlamogda.

Varis shoh men senga aytaman o'rningdan tur

Va ishq kitobining yangi varog'in och!

She'r shoiraning yuqoridagi xulosaviy fikri bilan yakunlangan, ya'ni ushbu misralarda ozod va obod kunlarga umid hissi barq urib turibdi.

“Voris shoh” she'rini mazmun, g'oya nuqtai nazaridan va tuzilish jihatidan ko'rib chiqdik, obrazlar silsilasiga e'tibor qaratsak. She'rda *Voris shoh, millionlab qizlar, Panjobning bir qizi, Ranjhu* kabi rang-barang obrazlar qatorida, *supa, daryo, qon, nay, ishq kitobi* kabi poetik timsollarni uchratamiz. Hech kimga sir emas yurt notinchligi hammadan ko'ra ko'proq ayollar taqdiriga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ham *millionlab qizlar faryodla yig'lar* deyilmoqda. Hind diyori epik obrazlarga boy albatta, yana bir lirik qahramon *Ranjhu* obrazi ham Sita kabi Panjob eposi qahramoni hisoblanadi.

Uning fuqarolik lirikasi namunasi hisoblangan yana bir mashhur asari bu “Muloqot”⁵³ she'ri bo'lib, boshqa she'rlaridan falsafiy mushohadaga boy ekanligi bilan ajralib turadi. Ushbu she'rda shoiraning ruhiy holati tadrijiy ravishda o'sib boradi. Shaxsiy muammolar sekin-asta ijtimoiy muammolar bilan

⁵³Pritam A. Mulaqat, Amrita Pritam ki shairi. 70-b.

uyg'unlashadi. Oqibatda lirik qahramonning shaxsiy hayoti endi bevosita Vatan taqdiri bilan qorishib ketadi.

میں چپ، شانت اور اٹول کھڑی تھی
صرف پاس بہتے سمندر میں طوفان تھا
پھر خدا جانے سمندر کو کیا خیال آیا
اس نے اپنے طوفان کی ایک گٹھری باندھی

Men turardim jim, sokin va qilmay to 'polon
Faqatgina yonimda oqqan dengizda to 'fon
Endi bilmam dengiz nimalar haqida o 'ylar
U endi o 'z to 'fonin bir tuguningina bog 'lar

میرے ہاتھوں میں تھمائی ، اور ہنس کر کچھ پرے ہو گیا
حیران تھی، مگر میں نے اس کا معجزہ تھام لیا
جانتی تھی، ایسا واقعہ کبھی صدیوں میں ہوتا ہے
لاکھوں خیال آئے، پیشانی میں جھلملائے

Qo 'limga sachratib unikulib chekindi nari
Hayron edi, lekin men tushundim mo 'jizasin
Bilardim, bu voqea goh asrlardagina bo 'lsin
Millionlab hayol keldi, peshonamga yig 'ilib

پر کھڑی رہ گئی کہ اس کو اٹھا کر
آج میں اپنے شہر کیسے جاؤں گی
میرے شہر کی ہر گلی تنگ ہے
میرے شہر کی ہر چہت نیچی ہے
میرے شہر کی ہر دیوار ایک چغلی ہے

Tepasida to 'xtab qoldi uni bazo 'r turg 'azib
Men bugun o 'z shahrimga qanday boraman
Mening shahrimda endi har tomon tor ko 'chalar
Mening shahrimda bugun har yoqda past tomlar

Mening shahrimning har yeri g'iybat to'la devorlar

میں نے سوچا، گر تو کہیں مل جائے
تو سمندر کی طرح اسے چھاتی پہ رکھ کر
ہم دو کناروں کی طرح ہنس سکتے تھے
اور نیچی چھتوں اور تنگ گلیوں والے شہر میں بس سکتے تھے

Men o'ylardim, agar sen qayerdadir uchrasang

O'zing misoli dengiz uni ko'ksinga qo'ysang

Bizlar ikki qirg'oqqa o'xshab kula olardik

Tomi past ko'chasi tor joyda yashay olardik

مگر ساری دو پہر تجھے ڈھونڈتے بیٹی
اور اپنی آگ کا میں نے خود ہی گھونٹ پیا
پھر دن ڈھلنے کے وقت
سمندر کا طوفان، سمندر کو لوٹا دیا
اب رات ہونے لگی تو تم ملے ہو

Bugun butun kun davomi seni qidirib o'tdi

Ichimdagi olovim qultumla ichimga yutib

Kun botgan vaqt to'fon dengizga qaytdi

Endi tushdi zulmat shunda seni uchratib

تم بھی اداس، چپ، شانت اور اڈول
میں بھی اداس، چپ، شانت اور اڈول
صرف دور بہتے سمندر میں طوفان ہے

Senxafa, parishon, sokin va qilmasding nolon

Men ham xafa, parishon va qilmasdim to'polon

Faqat uzoqda oqqan dengizda to'fon....

Donishmandlardan birining “Ziyolilar xalqning ovozi bo'lsa, shoiralar uning vijdonidir” degan xaqli so'zlarini biz hech ikkilanmay A.Pritamga nisbatan ham qo'llay olamiz. Zero, u o'zining uyg'oq va xassos qalbi bilan vatanida bo'layotgan har bir hodisaning asl mohiyatini his eta oldi, xalq

qismatini o'zining qismati deb qabul qildi, biroq u har qanday vaziyatda ham o'zining orzularidan, ozodlikka va tinchlikka bo'lgan umididan voz kechmadi. Ushbu she'rda ham yana o'sha tanish mavzu – ona yerni bo'linishi o'zgacha o'xshatishlar va yurtning bir kuyinchak farzandi sifatida mohirona ifodalangan.

Shoira ona yurti Panjobda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy voqelikni sinchkovlik bilan kuzatdi va ushbu voqeliklarni badiiy timsollar yordamida yuqoridagi she'rda jonlantirdi. Biz ushbu she'rda nafaqat xalqning ayanchli holati, balki yurt notinchligining shoira shaxsiy hayotiga ta'sirini ko'rishimiz mumkin:

Bugun men o'z shahrimga qanday boraman

Mening shahrimning har ko'chasi tor...

She'rda shoirani qattiq istirobga solayotgan narsa bu – notinchlik, vatandan yiroqdaligi, yurt sog'inch.

Ma'lumki, ijodkorning his-tuyg'ulari va kechinmalarini aks ettiradigan she'rlarda his-hayajonni, insonlarga xos xususiyatlarni ochishda, uni biror narsaga qiyoslashda, jonlantirib tasvirlashda keng imkoniyat beradigan she'riy san'atlar mavjud. Muallif ushbu she'rda tashxis, istiora, mubolag'a san'atlarini qo'llab, jozibali va ta'sirchan misralar yaratdi. She'rdagi har bir so'z, har bir detal muayyan bir poetik fikrni ifodalashga xizmat qilayotgani sir emas.

Masalan: to'fonli daryo – notinch mamlakatga o'xshatib tashbex (o'xshatish) qo'llanilgan bo'lsa, o'ylash, sachratish, kulish, hayron bo'lish kabi insonlarga xos hislatlarni daryoga nisbatan qo'llab tashxis (jonlantirish) san'atidan foydalanilgan. To'fonli daryo esa poetik timsol hisoblanadi.

Shoira she'rni o'z dardini o'z ichiga yutib, bo'linish muammosi o'z yechimini topmaganligidan qayg'uga botib, tushkun va chorasiz bir kayfiyat bilan yakunlaydi.

Sen xafa, parishon, sokin va qilmasding nolon

Men ham xafa, parishon va qilmasdim to'polon

Faqat uzoqda oqqan dengizda to'fon....

Yuqoridagi she'rlar tahlilidan ko'rinib turibdiki, xoh inson qalbidagi beg'ubor tuyg'ularni tarannum etsin, xoh mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni ifoda etsin, ularda shoiraning nihoyatda boy ma'naviy va ruhiy olami hamda pok qalbi bo'y ko'rsatib turibdi.

Amrita Pritam xalqining ingliz kolonizatorlari tomonidan chekkan g'amlarini, ochlik va yo'qchilikni, ayollar boshiga tushgan og'ir hayotni ko'rgan va og'ir o'ylar, ko'p yillar davomida erishilgan yetuk ijodkorlik hamda tajribali inson timsolida o'z ijod namunalari yaratgan. Chuqur ruhiyat shoirasi bo'lgan A.Pritamni ozodlik va demokratiya uchun kurashgan buyuk ijodkor desak, adashmagan bo'lamiz. Uning har qanday mavzuga bag'ishlab yozgan she'rlari inson qalbini jumbushga keltirishga qodir.

2.4. Amrita Pritam qo'llagan she'riy san'atlar

Ijodkor mahoratini baholashda uning asarlarida ifodalanayotgan g'oya o'z aksini topgan muammolar mohiyati va ko'lami yoki lirik obraz yaratish mahorati bilan bir qatorda qo'llagan she'riy san'atlarining rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asarda ko'tarilgan mazmunni ochib berishdagi o'rni va ahamiyatiga e'tibor qaratish lozim.

Adabiyotshunos olim Anvar Hojiahmedov so'zlari bilan aytganda, adabiyotshunosligimizda she'riy san'atlarni ma'naviy va lafziy san'atlarga ajratish an'ana bo'lib kelgan. Ma'naviy san'atlar asardagi g'oyalarni yorqin ifodalash, lirik va epik timsollarni hayotiyroq gavdalantirish, ularning ma'naviy qiyofalari, his-tuyg'ularini ta'sirchanroq aks ettirishga xizmat qilgan bo'lsa,

lafziy san'atlar asarning til jihatdan jozibadorligini, ohangdorligini ta'minlashga yordam bergan.⁵⁴

She'riy san'atlarni mohirona qo'llash ijodkorning badiiy tafakkur salohiyati, til in'om etgan cheksiz imkoniyatlardan foydalana olish iqtidoriga bog'liq ekanligi nazarda tutilganda, A.Pritam o'zining beqiyos ijodkor ekanligi bilan ajralib turadi.

Amrita Pritam o'z she'rlarida majoziy timsollardan keng foydalandi, shuning uchun ham uning asarlari ma'naviy san'atlar sirasiga kiruvchi tashxis, tashbih, istiora, talmih, mubolag'a kabi san'atlarga boy.

She'riy san'atlar, avvalo, mantiqiy zaminga ega bo'lishi, ya'ni qo'llanilayotgan san'at hayot mantiqiga mos kelishi, unga zid bormasligi shart. She'rda qo'llanilayotgan **tashbih**⁵⁵ o'xshatiluvchi va o'xshatilgan ikki narsa o'rtasidagi mantiqiy munosabat zaminiga qurilishi zarur. *Masalan:*

معصوم خوشی ہاتھ چھڑا کر دونوں ننھی بابیں پھیلا کر
ایک دوشیزہ کی طرح ننگے پاؤں بھاگ اٹھی⁵⁶

Ma'sum quvonch zorlanib, qulochlarin yoydi shoshib

Bokira bir qizga o'xshab, uzoqlarga ketdi qochib

(“Quvonch” she'ridan)

Ma'sum to'la quvonch bokira qizaloqga o'xshatilmoqda. Ushbu misra orqali shoira bokira qizaloq kabi sof, pokiza va beg'ubordir ma'sum to'la quvonch demoqchi nazarimizda.

Shuningdek, Amrita Pritam lirikasida **talmih**⁵⁷ san'atidan ham namunalar uchratish mumkin. Ushbu san'atni qo'llashning muhim bir sharti mavjud bo'lib, ya'ni shoira ishora qilayotgan tarixiy shaxs keng o'quvchi ommasiga yaxshi tanish bo'lishi zarur. *Masalan:*

⁵⁴Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999. 8-b.

⁵⁵Sharq adabiyotida keng tarqalgan san'atlardan biri bo'lib, “o'xshatish” ma'nosini ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasidagi haqiqiy (real) yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'atidir

⁵⁶Pritam A. Xushi, Amrita Pritam ki shairi. 142-b.

⁵⁷Talmih (“nazar solmoq”) she'rda mashhur tarixiy voqea yoki shaxslarga ishora qilmoq san'atidir

آج وارث شاہ سے کہتی ہوں اپنی قبر میں سے بولو
اور عشق کی کتاب کا کوئی نیا ورقہ کھولو⁵⁸

Voris shoh tingla dardim – qabringdan so'zla!

Ishq kitobin soz varog'in ochmoqni ko'zla

(“Vorish Shoh” she'ridan)

Baytdagi shoiraning XVIII asr mashhur vatanparvar shoiri Voris shohga murojaatini ko'rgan o'quvchining ko'z oldida Panjobdagi bo'linishning ayanchli oqibatlarini namoyon bo'ladi.

She'riy san'atlar o'quvchi bilim darajasiga muvofiq bo'lishi zarur. O'quvchi o'z xalqi va o'rganilayotgan mamlakatning tarixi, madaniyati va urfodatlarini qanchalik yaxshi bilsa, she'riy san'atlar mohiyatini ham shunchalik oson anglab yetadi va shoira aytmoqchi bo'lgan fikrlar mag'zini chaqa oladi. Misol tariqasida quyidagi she'riy parchani olaylik:

آج میں اپنے شہر کیسے جاؤں گی
میرے شہر کی ہر گلی تنگ ہے
میرے شہر کی ہر چہت نیچی ہے
میرے شہر کی ہر دیوار ایک چغلی ہے⁵⁹

Men bugun o'z shahrimga qanday boraman

Mening shahrimda endi har tomon tor ko'chalar

Mening shahrimda bugun har yoqda past tomlar

Mening shahrimning har yeri g'iybat to'la devorlar

(“Muloqot” she'ridan)

Shoira shahrimda tor ko'chalar, past tomlar, har yer g'iybat to'la devorlar deganda, 1947-yildagi bo'linish paytidagi musulmon sikhlar va hindlar orasida qon-qardoshlik qirg'inlarini nazarda tutib, **istiora**⁶⁰ san'atini qo'llagan.

⁵⁸ Pritam A. Varis Shah, Amrita Pritam ki shairi. 114-b.

⁵⁹ Pritam A. Mulaqat, Amrita Pritam ki shairi. 70-b.

⁶⁰ Arabcha so'z bo'lib, “biror-bir narsani omonatga (vaqtincha) olmoq”, ya'ni so'zni o'z haqiqiy ma'nosida emas, balki majoziy ma'noda qo'llash san'ati

Darhaqiqat, yuqorida keltirilgan misol Panjob tarixini bilmasdan turib, shoironing g'oyaviy niyatini ham, badiiy san'at nafosatini ham tushunib yetmaslik aniq va ravshan ekanligini isbotlaydi.

Shu o'rinda **mubolag'a**⁶¹ san'atiga to'xtalib o'tsak, uning *tablig'*, *ig'roq*, *g'uluvv* deb ataladigan uch turi mavjud bo'lib, Amrita Pritam lirikasida o'rni beqiyos.

Birinchisi *tablig'*, ya'ni aqlan ishonish mumkin, hayotda ham yuz berish ehtimoli mavjud mubolag'a. *Masalan:*

جہاں پیار کے نغمے گونجتے تھے، وہ بانسری جانے کہاں کھو گئی
اور رانجھے کے سب بھائی بانسری نجانا بھول گئے!

Uning kuychilari allaqayerga yo'qoldi bedod

Ranjhu akalari nay chalishni unutdi hayhot!

(“Vorish Shoh” she’ridan)

Sozanda chalishni unutib qo'yishi aqlga sig'adigan, hayotda ham ma'lum sababga ko'ra sodir bo'lishi mumkin bo'lgan holat bo'lsada, bu yerda shoira vatanidagi holatni ko'rib, o'yin-kulgu yurakka sig'may qolganligini *tablig'* mubolag'a orqali ifodalamoqda.

Mubolag'aning ikkinchi darajasi *ig'roq*, ya'ni aqlan ishonish mumkin bo'lsa ham, hayotda yuz berish ehtimoli bo'lmagan tarzda kuchaytirib tasvirlash. *Masalan:*

اگر مجھے ڈھونڈنا چاہو
تو ہر کے ملک ہر شہر کی ہر گلی کا
دروازہ کھٹکھٹاؤ⁶²

Gar meni istamoq istasang

Har mamlakat har shahar har ko'cha

⁶¹ Mubolag'a arab tilida “kattalashtirish”, “kuchaytirish” ma'nosini bildirib, asarda tasvirlanayotgan timsol holati yoki harakatini bo'rttirib, kuchaytirib ifodalash san'ati

⁶² Pritam A. Mera pata, Amrita Pritam ki shairi. 36-b.

Taqillat darvozasin ...

(“Mening manzirim” she’ridan)

Ushbu mubolag’ali tasvirda “agar meni qidirishni xohlasang, unda har bir mamlakatning har bir darvozasini taqillatib chiq” degan fikr ifodalangan. Bunday holatni aql bovar qilishi mumkin, lekin hayotda yuz bermaydi.

G’uluvv – aqlga ham sig’mas, hayotda ham yuz bermas darajada bo’rttirib tasvirlash orqali shoira tasvirning noyobligiga erishadi va o’quvchiga estetik zavq baxsh etadi. Shuning uchun shoirlar bu xil mubolag’adan keng foydalanganlar. Jumladan, A.Pritam ham. *Masalan:*

جب آسمان روشنی اور رات کی بھی سگای کرتی ہے
اور تارے مبارکبادیاں گاتے ہیں⁶³

Osmon unashtirganda kun bilan tunni

Yulduzlar aytmoqda tabrik qo’shig’ini

(“Kamina” she’ridan)

Tajohuli orif⁶⁴ san’ati esa shoiraning baytda aks ettirilayotgan biron obrazli iborani aniq aytmasdan o’zini bilib bilmaslikka olgandek ko’rsatishni nazarda tutadi. *Masalan:*

چوپال لاشوں سے اٹا پڑا ہے، چناب لہو سے بھر گیا ہے
کسی نے پانچوں دریاؤں میں زہر ملا دیا ہے

Chinobku to’lib bo’ldi qon bilan allaqachon

Kimdir besh daryoni qonla to’ldirar hamon

(“Voris Shoh” she’ridan)

Yuqoridagi baytda *kimdir Panjobni qonga to’ldirib qo’ydi* deyilsada, shoiraga nima sababdan Panjob mana shunday qonli holatga tushib qolganligi ma’lum albatta.

⁶³ Pritam A. MeiN, Amrita Pritam ki shairi. 14-b.

⁶⁴“Bilib turib bilmaslikka olish” ma’nosini ifodalovchi san’at turi

Quyida she'riy asar muallifi ilgari surayotgan g'oyani aniqroq ifodalashga va tasvirlanayotgan lirik obrazga jonlilik, jozibadorlik kiritishga xizmat qiladigan *tashxis*⁶⁵san'atiga misollar ko'rib chiqsak.

(1) حیرت کا تلخ کانٹا ایڑی میں اس طرح چھ گیا
عقل علم کے ناخن ہار گئے، جانے کانٹا کہاں تک اتر گیا

Hayratning achchiq tikani vujudimga shunday sanchildi

Lol qolgan aql hayratda, alamga qandayin yengildi

(*“Quvonch” she’ridan*)

(2) پھر خدا جانے سمندر کو کیا خیال آیا
اس نے اپنے طوفان کی ایک گٹھری باندھی

Endi bilmam dengiz nimalar haqida o'ylar

U endi o'z to'fonin bir tuguningina bog'lar

(*“Muloqot” she’ridan*)

Zamonaviy Panjob adabiyotida o'zining benazir asarlari bilan munosib iz qoldirgan mashhur shoira va el ardog'idagi yozuvchi Amrita Pritam she'riyatida qo'llanilgan badiiy-tasviriy vositalar shoiraaning poetik tafakkurining kengligidan va badiiy mahorati yuksak ekanligidan darak beribgina qolmay, o'quvchiga o'zgacha zavq va shavq baxsh etadi.

Ayni damda chuqur ruhiyat shoirasi bo'lgan A.Pritamni so'zning qudratli kuchidan to'laonli va unumli foydalana olgan buyuk ijodkor desak, adashmagan bo'lamiz.

⁶⁵Hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko'chirish san'ati

2-bob bo'yicha xulosalar

Amrita Pritam she'riyatga o'z ohanglari, o'z ifoda usuli, borliqqa - tabiat va jamiyatga, odamlarning ruhiy olamiga o'z qarashlariga ega bo'lgan lirik qahramoni bilan kirib keldi. Shoir she'rlarida lirik qahramon ko'p qirrali va shu bilan birga uyg'un obraz sifatida namoyon bo'ladi. Uning lirik qahramoni evolyutsiyasini she'rda o'rta qo'yilgan muammolar, ularning mazmunini ochib berish, shoir she'riyatidagi asosiy motivlar va kayfiyatlarni, she'r manbalarini aniqlash orqali tushunish mumkin.

She'riyatda lirik qahramon doimo asar markazida bo'ladi. She'riyat ixlosmandlari muallifning lirik "meni" orqali shoiraning poetik olamidan voqif bo'lish, uning kechinmalari girdobiga kirish va tuyg'ularini his qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Lirik qahramon deyilganda kimni - shoiraning o'zinimi yoki biror boshqa shaxsni nazarda tutamizmi degan savol tug'ilishi tabiiy.

Amrita Pritamning lirik qahramoni aksariyat hollarda shoiraning o'zi, uning "meni" sifatida namoyon bo'ladi. Biroq bundan shoir bilan lirik qahramon bir shaxs, ular o'rtasiga tenglik alomati qo'yiladi, degan xulosa kelib chiqmasligi lozim. Shoiraning lirik qahramoni o'z davrining ilg'or g'oyalarini ilgari suruvchi ma'naviy boy, estetik faol, yuksak vatanparvar, kurashchan, do'stlik va sevgida sadoqatli tipiklashgan obrazdir.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, u o'z asarlarida *oy, tikan, osmon, quyosh, zulmat, gul, dengiz....* kabi an'anaviy obrazlar barobarida, *sopol ko'za, nay, qalam, tikan, ma'sum quvonch* kabi ramziy ma'no kasb etuvchi individual obrazlar yaratilganligi bilan ajralib turadi. Ahamiyatli tomoni shundaki, qanday mavzuda bo'lishidan qat'iy nazar deyarli har bir she'rda *oy, tikan, osmon* obrazlari mavjudligi e'tiborimizni tortdi.

Shoir she'rlarida tuyg'u va fikr qorishiq holda namoyon bo'ladi. Lirik xarakter fikr va hisning dialektik birligiga asoslanadi. Lirik xarakter - obraz

ijodkorning voqelikka munosabati, nimadandir qoniqishi yoki qoniqmasligi, qandaydir voqea-hodisaga o'z xayrixohligi yoki noroziligini bildirishi, ruhiyatiga ta'sir qilgan kechinmalarni ifodalashi orqali yaratiladi.

Davr ijodkorga mavzular, tuyg'ular berishi mumkin. Lekin hamma gap bu niyatni qay taxlitda ifodalay bilishda, ro'yobga chiqarishda. Amrita Pritamning san'atkor ijodkor sifatidagi mahorati shundaki, lirik bir she'r doirasida umum ahamiyatli muammoni o'q markazga olib chiqib, o'z poetik niyatini real borliqning in'ikosi bo'lgan fikrlar va his-tuyg'ular orqali jamiyat va alohida olingan bir shaxs olamining haqqoniy manzarasi va siyratini, sharhi va tahlilini satrlarga singdira oladi.

Ijodkorning mahorati uning lirik obrazni qanchalik jonli ifodasini yarata olishida namoyon bo'ladi. Biz ushbu bobda shoira she'riyatida lirik qahramon ruhiyati qirralari qanchalik mahorat bilan ifodalanganini ijod mahsullarini mavzu nuqtai nazaridan guruhlab, ularni tahlil qilish asosida ko'rib chiqdik. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Panjobning atoqli shoirasi Amrita Pritam – buyuk iste'dod sohibasi, obraz yaratishda o'zgacha uslubga ega ijodkordir.

III BOB. ADABIY ALOQALAR: AMRITA PRITAM VA ZULFIYA

Mashhur Panjob shoirasi Amrita Pritam o'z ijodini ko'plab xorijiy mamlakatlar, shu jumladan, Rossiya va O'zbekistonga qilgan safaridan olgan olam-olam taassurotlari natijasida rang-barang mavzu va yangi obrazlar bilan boyitdi. 1961 yili yozuvchilar qo'mitasi taklifi bilan Moskva, Toshkent, Samarqandga sayohat qiladi, Rabindranat Tagorning 100 yilligiga bag'ishlangan tantanali majlisda qatnashadi, 1966 yili madaniy aloqalar o'rnatish yo'li bilan yana mamlakatimizda mehmon bo'ladi.

Har ikkala xalq adabiyotida o'zining durdona asarlari bilan munosib o'rniga ega bo'lgan shoirlar ijod namunalaridan biri – Zulfiyaning “Mushoira”si ⁶⁶ bo'lsa, yana biri Amrita Pritamning “Xotiralar” ⁶⁷ nomli ocherklar to'plamidir. Ushbu to'plamdagi 7 ta maqola O'zbekistonning bir qator go'zal shaharlari, yozuvchi va shoirlar bilan bo'lgan suhbatlar, turli uchrashuvlar hamda Zulfiya va uning she'riyati kabi mavzularga bag'ishlangan. A.Pritam ushbu kitobini bejiz Zulfiyaga bag'ishlamagan, chunki 1961-1962 yillarda Panjob shoirasi o'zbek ayoli Zulfiya huzurida mehmon bo'ladi.

O'zbekistonda kishilarning quvnoqligi, ularning o'z xalqi farovonligi yo'lida astoydil mehnat qilishi shoirani maftun etadi. Amrita Pritam o'zining “Xotiralar” kitobida kishilarning mehnati tufayli boy paxta o'lkasiga aylangan Farg'ona vodiysini “*Xabida husina*”(“Uyqudagi go'zal”) ⁶⁸ deb ataydi. Gulistonga aylangan Mirzacho'l, Farhod hamda go'zal Shirin haqidagi afsona A.Pritamni Hindiston tog' konchilari obrazini yaratishga ilhomlantiradi.⁶⁹

Shuningdek, Amrita Pritamning “Zulfiya – o'zbek shoirasi” ⁷⁰ nomli maqolasida madaniy-adabiy aloqalarimizning bir lavhasini ko'rish mumkin. Ikki ijodkor o'rtasidagi o'zaro hamkorlik hind va o'zbek ixlosmandlari uchun betakror tuhfa aylandi.

⁶⁶Zulfiya. Tong bilan shom aro (Saylanma). – T., 2005. 178-b.

⁶⁷Pritam A. Atit ki parchxhaiya:N (Xotiralar). – D., 1962 (hindiy tilida)

⁶⁸O'sha yerda

⁶⁹Xodjayeva T.A. O'zbekiston va Hindiston adabiy aloqalari tarixidan. – T., 2011. 82-b.

⁷⁰Pritam A. “Zulfiya – o'zbek shoirasi”. – T., 1967

Mustaqil Hindistonda o'zbek yozuvchilari ijodiga qiziqish katta bo'lganligi sababli O'zbekistonga bag'ishlangan ocherk va xotiralar "Xotiralar" kitobidan keng o'rin olgan.

Panjob shoirasining o'zbek ayollari haqida yozgan satrlari quvonch va faxr hissiga to'la. U o'zbek xotin-qizlari katta yutuqlarga erishganligini hayajon va hayrat bilan gapiradi. "Ipak kombinatlarining direktori ayollar... Farg'ona viloyat ijroiya qo'mitasi raisining o'rinbosari ham ayol. Keyinchalik men bir yarim ming kolxozchiga rahbarlik qilayotgan kolxoz raisasi Onaxon bilan tanishdim"⁷¹

A.Pritam O'zbekistonning ko'plab shoirlari bilan yaqindan tanishadi. U hayrli ishga qo'l urib, G'.G'ulom, Oybek, Hamid G'ulom va A.Muxtor kabi ijodkorlarning ijod namunalarini panjob tiliga tarjima qilib, kitobxonlarga taqdim qiladi.⁷²

1990 yilda Hindistonda A.Pritamning "Khirkiana"⁷³ ("Derazalar") nomli safar ocherklari va xatlar to'plami bosilib chiqdi. Bu kitobda u O'zbekiston, Rossiya kabi mamlakatlarga qilgan sayohatlari davomida olgan hayajonli taassurotlari, uchrashuvlari, quvonchli voqealar va o'zgarishlar haqida yozadi.

Bu ikki xalq qizlari adabiyot atalmish do'stlik ko'prigida o'z ijod namunalarini yaratishgan. Ikkala mamlakat, ikkala shoirlarning do'stlik, ijodiy aloqalari ko'p yillar davom etib, mamlakatlarimiz madaniyatini, tarixini, adabiyotini chuqurroq tushunishga, yaqinlashtirishga katta hissa qo'shdi.

3.1. Amrita Pritam asarlari O'zbekistonda

O'zbek kitobxonlari A.Pritam ijodi bilan ilk bor 1958 yilda "O'zbekiston xotin-qizlari" jurnalida chop etilgan "*Bxangra(panjobliklar raqsi)*", "*Oydin*

⁷¹Pritam A. Atit ki parchxhaiya:N (Xotiralar). 142-b.

⁷²Xodjayeve T.A. O'zbekiston va Hindiston adabiy aloqalari tarixidan. 82-b.

⁷³Pritam A. Ikkis pattiyan ki gulab. 1968

*tun*⁷⁴ she'rlari orqali tanishadilar. She'rlarni o'zbek tiliga Zulfiya tarjima qilgan edi.

Yorqin oltin umidim tongi
Orom to'la baxtiyor tunim
Ovozimdir o'lkam jarangi
Tinglar uni tuprog'im, elim –
Bayram kabi bu kun oydin tun...

Oydin tun she'ridan parcha (Zulfiya tarjimasi)

1961 yilda esa unga bag'ishlangan S.G'aniyeva tomonidan “Qalb kuychisi” va Zulfiyaning “Xush kelibsiz, aziz do'stim Amrita Pritam” nomli maqolalari bosilib chiqdi.⁷⁵ Ayni mana shu yil “Sharq yulduzi” jurnali sahifalarida “Bir savol” (romandan parcha) va boshqa bir qator asarlari, 1962 yili chiqqan “Yuriy Gagarin” va “Ey to'quvchi ayol” kabi she'rlari ham o'zbek kitobxonlariga arzigulik sovg'a bo'ldi. She'rlari bilan bir qatorda bir necha hikoyalari ham o'zbek tiliga tarjima qilindi. Misol uchun “Bir savol”⁷⁶, “Amarki”⁷⁷ va boshqalar.

Biz yuqorida sanab o'tgan tarjimalar asosan uchinchi til, rus tili orqali amalga oshirilgan bo'lsa, 70-yillardan boshlab, bevosita tarjimalar qilina boshlandi.

O'zbek hindshunosi Xodjayeva Tamara Aliyevna tomonidan shoiraning she'riyati, ayniqsa, o'rganilmagan nasrchilikni tahlil qilinib, o'zbek va rus tillarida bir nechta maqola va kitoblar chop etildi. *Masalan:*

1. К вопросу об общественно-политических взглядах А.Притам. Тезисы. ИВАН М. 1971 г.
2. Поэтический голос Пенджаба. Звезда востока. 1972. №4

⁷⁴Pritam A. Bxangra, O'zbekiston xotin-qizlari. – T., 1958. №6

⁷⁵G'aniyeva S. Qalb kuychisi, O'zbekiston xotin-qizlari. – T., 1961. №5

⁷⁶Pritam A. Bir savol, Sharq yulduzi. – T., 1961. №4

⁷⁷Pritam A. Amarki, Sharq yulduzi. – T., 1991. №2

3. Идейно-эстетические взгляды А.Притам. Востоковедение. Т.: ТашГУ, 1972. №430
4. Тема Советской страны в творчестве А.Притам. Востоковедение. Т.: ТашГУ, 1973. №456
5. А.Притам о назначении художника слова. Востоковедение. Т.: ТашГУ, 1977. №540
6. “Do’stlik rishtalari” (Panjob va O’zbekiston). “O’zbekiston madaniyati”. 1978 yil, 28 fevral.
7. Женский образ в ранних романах А.Притам. Востоковедение. Т.: ТашГУ, 1981. №589
8. Проблематика сборника рассказов А.Притам “Мои любимые рассказы”. Востоковедение. Т.: ТашГУ, 1984. №720
9. Проблема молодежи в романах А.Притам. Востоковедение. Т.: ТашГУ, 1986
10. Panjob adabiyotida yangi motivlar. Ulug’ Oktabr va xorijiy sharq adabiyoti. Т.: “Fan”, 1987
11. Проза А.Притам (монография). Издательство Пенджабской Академии. Д., 1991 (на яз. панжаби)
12. Проза Амриты Притам конца XX начала XXI века. (на русском, узбекском, английском языках). Сб. Janubiy Osiyo tillari kafedrası tezislar to’plami. Т., 2009
13. Hindiston va O’zbekiston adabiy aloqalari tarixidan. Monografiya. Т.: ToshDSHI, 2011
14. O’zbek-hind madaniy-adabiy aloqalari tarixidan. Monografiya. Т.: ToshDSHI, 2012
15. Panjob adabiyoti. Monografiya. Т.: ToshDSHI, 2014

1971 yil Toshkentda A.Pritamning “Qora atirgul”(1966) va “Turmush”(1967) to’plamidagi asarlari va shoiraning o’z vataniga bo’lgan muhabbatini tarannum etgan she’rlarini o’zida jamlagan she’riy to’plami (rus tilida) nashrdan chiqdi. Ushbu to’plam quyidagi uch bo’limdan iborat:

1. Bug’doy haqida qo’shiq
2. Qora atir gul
3. Turmush

“Bug’doy haqida qo’shiq” bo’limiga kiritilgan she’rlar orasida 1947 yilda sodir bo’lgan mamlakatning ikki qismga bo’linishi mavzusiga bag’ishlangan “Bug’doy haqida qo’shiq” she’ri ayniqsa bo’linishning fojeaviy natijalarini his etish imkoniyatini beradi.

“Qora atirgul” nomli bo’limidagi she’rlarida esa A.Pritam o’z “men”i orqali ko’p ming sonli hind ayollari fikrini ko’rsatadi: sevgini ham ayol ko’ngli bilan, ochiqlik bilan o’ziga xos tasvirlaydi.

Uchinchi qism “Turmush” bo’limiga kirgan she’rlariga adabiyotshunos T.A.Xodjayeva quyidagicha ta’rif beradi: “... she’rlari go’yo hayqirib oqayotgan daryoni eslatadi, hech qachon to’xtash nimaligini bilmagan va turlicha rang, turlicha ovoz va turlicha ohang kasb etib turadi. Ma’naviy qadriyatlar yemirilib borayotgan hozirgi zamonda o’z shaxsiyati, o’z ruhini singdirmay, butun saqlab qolishning o’zi bir mo’jiza bo’lsa, ushbu she’rlarni vujudga keltirgan ana o’sha mo’jizadir”⁷⁸.

3.2. Amrita Pritam va Zulfiya lirikasida ayol taqdiri hamda ishq tarannumi

“Sevgi – ayolning butun hayoti,
erkaklar uchun – hayotning faqat bir qismi”

Amrita Pritam

⁷⁸ Xodjayeva T.A. O’zbek-hind madaniy-adabiy aloqalari tarixidan. – T.: ToshDSHI, 2012. 70-b.

Darhaqiqat, insonni poklikka, komillikka undovchi kuch – muhabbatning ayol qalbidagi o'zni beqiyos. Ayol bor ekan tilimizda ishq, sevgi, muhabbat deya yuritiluvchi ushbu tuyg'u barhayot. Demak, ayol va ishq hamisha bir-biriga bog'liq, birisini ikkinchisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Qadim zamonlardan to bugungi kunimizga qadar bu ikki uyg'un tushunchalar tarannum etilib kelinmoqda.

Ijodkor dunyoning qay bir mintaqasida yashamasin, qaysi bir millatga mansub bo'lmasin, qaysi tilda ijod etmasin, baribir ayol va ishq atalmish barhayot tuyg'uning madh etuvchisi, kuylovchisi bo'lib qolaveradi.

O'z she'rlarida ana shunday bezavol tuyg'uning naqadar samimiyligini, buyukligini tarannum etgan shoiralardan biri "Gyanpitx"⁷⁹ mukofoti sohibasi Amrita Pritam bo'lsa, boshqasi vafo va sadoqat kuychisi Zulfiyaxonimdir.

Mashhur adabiyotshunos olim Y.P.Chelishevning Amrita Pritam haqidagi "uning she'riyati asosini muhabbat lirikasi tashkil etardi va har qanday sharoit, har qanday vaziyatda ham ayol taqdirini bosh mavzu etib o'ziga maqsad qilib qo'ygan"⁸⁰ degan fikrlari o'rinli albatta.

Yuqoridagi ta'rif Zulfiyaxonim ijodiga ham taalluqli deyish mumkin. Adabiyotshunos Adiba Umirovaning "Umuman, ayol qalbi – eng nozik xilqat. Lekin o'zbek ayolining, ayniqsa, ONA qalbini she'rda yaxlit tasvirlash shoiralar uchun ushalmas orzudir. Zulfiyaxonimning she'riyatida ayollar dunyosi alohida o'rin tutadi", deya bergan ta'rifi fikrimiz dalili.

Quyida har ikkala shoiralarning ayol va ishq mavzusiga bag'ishlangan asarlarini ko'rib chiqsak.

1941 yil Amrita Pritamning "Shudringlarda chayilgan gullar" nomli to'plami chiqdi. Ushbu to'plamda shoira ayollar mavzusini, ishq mavzusini tarannum etdi. O'z she'rlarida u g'amga botgan va yig'lagan ayollar obrazini,

⁷⁹Hindiston hukumati tomonidan fuqarolarga adabiyot sohasida qilgan mehnatlari evaziga beriladigan eng yuqori mukofoti

⁸⁰Челышев Е.П. Современная индийская литература. – М., 1981

ishqdan yashnab kulgan ayollarni, ko'zida olov, qalbida onalik mehri bor ayollar siymosini yaratdi.

1966 yil nashrdan chiqqan "Qora atirgul" to'plamidagi she'rlarida ham sevgini ayol ko'ngli bilan, ochiqlik bilan o'ziga xos tasvirlaydi, bu borada uning o'z ohanggi bor. U nafaqat so'z orqali balki, qalb og'riqlari, yurak sirlari bilan ayol taqdirini ko'rsatish orqali butun mamlakatda mavjud bo'lgan ayanchli vaziyatni ochib berdi.

Taniqli tadqiqotchi I.D.Serebryakov qarashlariga ko'ra, asrlar mobaynida zulm va haqsizlikdan ezilgan, turli diniy udum va marosimlar, hurofiy jaholat qurboni bo'lgan ayollar uning she'rlarida asosiy mavzu bo'ldi. Amrita Pritam ayollar boshiga tushgan og'ir hayotni ko'rdi. U o'z iffati yo'lida olamdan ko'z yumgan ayolni, xo'rlangan ayolni, uy xizmatchisi bo'la turib or-nomusi oyoq osti qilingan ayolni, yuragi tilla bo'la turib, oddiy sotib olinadigan va sotib yuboriladigan ayolni ko'rdi.⁸¹

میں ("Kamina")⁸² she'rida ishq xotirasi

آسمان جب بھی رات کی اور روشنی کی سگائی کرتا ہے
اور تارے مبارکبادیاں گاتے ہیں
میں کیوں سوچا کرتی ہوں
اگر کہیں ---
میں ، جو تمہاری کچھ نہیں لگتی

Osmon unashtirganda tun ila kunin

Yulduzlar aytmoqda tabrik qo'shig'in

Nechun o'ylayveraman

Agar qayerdadir....

Men sening dilinga emasman yaqin

جس رات کے ہونٹوں نے
سپنے کی پیشانی پر بوسہ دیا تھا
میرے خیالوں کے پیروں میں

⁸¹Серебряков И.Д., Пенжабская литература, М., 1963

⁸² Pritam A. MeiN, Amrita Pritam ki shairi. 14-b.

اسی رات سے جہانجر بولتی ہے
جب آسمان پر بجلی بادلوں کے ورقے کھولتی ہے
مری کہانی اپنے آغاز، اپنے انجام کو ڈھونڈتی ہے

Tun lablari o'pgan payt

Tush peshonasidan

Payl⁸³ kuylar oyoqlar

Boshlab o'sha tundan

Osmondagi chaqmoq ocharkan bulutlarning pardasin

Mening hikoyam izlar o'z yakuni va o'zining ibtidosin

جب بھی تیرے دل کے دریچہ کا دروازہ بج اٹھتا ہے
سوچتی ہوں، کتنی جرات ہے میرے سوال کی
ہاتھوں پر عشق کی مہندی کا کچھ دعویٰ نہیں
بجر کا ایک رنگ ہے، خوشبو ہے تیرے ذکر کی

Dil darvozasi ochilganin yangrar ovozi

O'ylaymanki, savolimning qancha mardonavorligi

Qo'llarimda muhabbat xinasin hech qanday da'vosi yo'q

Ayriliqning bir rangi bor, seni eslasam unda bir is bor

She'r mazmuni lirik qahramon tomonidan bayon qilingan. Qahramon birinchi shaxs birlikda berilgan va u o'z sevgilisiga murojaat etmoqda. Mazmunning an'anaviy elementlari asosan ayriliq motivi. She'rda bir qancha o'xshatishlar ko'chma ma'no bilan berilgan. So'ng bundan chuqurroq ta'sir elementlari ishlatilgan, ayriliqni yengmoq hamda chidash motivi. Lirik qahramon ruhiy holati tushkun va sevgilisini eslasa unda bir hushbo'y is borligini ta'kidlamogda. She'r asosan monologik bayon etilgan bo'lsada, ichki dialogga o'xshab ketadi. Shoiraning o'z-o'ziga murojaatini ham ko'rishimiz mumkin.

Nechun o'ylayveraman

Agar qayerdadir....

Men sening dilinga emasman yaqin

⁸³ Hind ayollarining oyoqqa taqiladigan milliy taqinchog'i

She'rdan shoiraning zamonaviy voqelik materiali asosida sevgi mavzusiga o'ziga xos yondashishi, o'z tafakkuri yog'dusi bilan qarashi mujassam topgan. Lirik qahramon muhabbatni hayotning buyuk ne'mati, tabiat in'omi deb biladi, "goho pinhon, goho asov daryoday toshib", chin yurakdan, samimiy sevganligini oshkora izhor qiladi.

She'rdan asosan ikkita semantik markaz bor:

1) lirik qahramon

2) uni sevgilisi

va syujetning ikkita komponenti bor:

1) sevgi iztiroblarining aks ettirilishi

2) sevgilisining uzoqda bo'lishi.

Ushbu she'rda ham an'anaviy *mavzu* va *mazmun*, ya'ni sevisht qiyinchiligi va ayriliq masalasiga urg'u berilgan bo'lsada, o'ziga xos tasvir elementlaridan foydalanilgan, ya'ni she'r g'oyasi asosan anonim so'zlar: kun va tun, yorug'lik va qorong'ulik, yer va osmon so'zlari bilan ifodalangan. Albatta bu yerda tabiat manzaralari bevosita berilgan: *oy*, *yulduz*, *bulut*, *chaqmoq* va hokazo. She'rdagi hamma baytlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq emas. *Masalan*:

Qachonki sening dilingning darvozasi ochilganini ovozi yangradi

O'ylaymanki, mening savolimning mardonavorligi qancha

Umuman she'r, mavzu, mazmun, ham ohang, ham istiora, qiyoslash, o'xshatishlarni olganda g'azalga ham o'xshab ketadi. Ayriliq motivi she'rda noan'anaviy, qiziq uslubga duch keladi.

Ko'proq ayriliq sevgilisini eslash bilan bog'liq va shuning uchun u ajoyib bir solishtirishni ishlatgan.

Seni eslasam unda bir hushbo'y is bor

She'rda lirik qahramon (ayol) ayriliqni yengishga harakat qiladi, ayriliq uni azoblaydi, chunki ular o'rtasida imkoni yo'q munosabat. Shuning uchun *o'pish*, *parda ochish* degan iboralarni ishlatadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ushbu she'rdan lirik qahramon o'z sevgilisi bilan bo'lgan sevgi-muhabbatni emas, ko'proq o'zining ichki ruhiy holatini aks ettirishga harakat qilgan.

O'zbek shoirasi Zulfiyaxonim ijodini diqqat bilan kuzatsak, har bir she'rida ayol va ishq tarannumi etilgan deyish mumkin. Ayniqsa uning 1938-1939 yillarda chop etilgan "She'rlar" va "Qizlar qo'shig'i" she'riy to'plamlaridan joy olgan "Hojar", "Nishondor", "Lobar qizlarga" "Seni sevardim", "Studentka" kabi she'rlari shoirani xotin-qizlar tushunchasidagi yangi hayotga, istiqbolga dadil intilishini yorqin ifodaladi.

"Agar iste'dodim bor bo'lgan bo'lsa, uning chashmasi-onam. Agar adabiyot ahliga bir kaft don yanglig' she'riy hosil tutgan bo'lsam, uning urug'ini qalbimga avval onam sochganlar", -degan edi Zulfiya. Shoiraning butun ijodi davomida onani, ayolni ulug'lovchi otashin she'rlar yozishi bejiz emasdi.

Shoira o'z ustozini avvalo "davrning, hayotning o'zi", deb hisoblaydi. Shoira hayot, turmush saboqlaridan ilhom oldi va 17 yoshidayoq "Hayot varaqlari" (1932) degan ilk to'plamni chiqardi. Qarangki, A.Pritamning ham birinchi she'riy to'plami ("Sovuq nurlar") 17 yoshida nashrdan chiqqan. Demak, har ikkala shoira ham she'riyatga juda ham erta qadam qo'ygan. Ammo yosh shoiralar dastlabki ijod namunalarida dunyoga, voqealikka, insonga o'z nuqtai nazaridan qarash darajasiga ko'tarilmagan edilar.

Ularning she'riyatida fojeaviylikni keltirib chiqargan va chuqurlashtirgan asos esa ular yashagan davrdagi o'ziga xos siyosiy holat va ularning tarjimai hollariga bog'liq. Fojeiy ohangni ustunligi shoiralar she'rlarida yana bir o'ziga xoslikni-voqeaviylikni, ixcham syujetlilikni keltirib chiqargan.

Zulfiya: "Nazarimda, shoirlar o'z tarjimai hollarini yozmasliklari joiz. Negaki, shoirlar haqida she'rlari tavsif beradi, ular haqida hamma narsani aytib bermasa ham ijodlarida hayotlarining ko'pchilik tomonlarini sharh etib berishga qodir she'rlari bo'ladi",- deb yozgan edi.

Darhaqiqat, turmush o'rtog'i hayoti vaqtidayoq shoira ijodiga hijron ohangi kirib keldi. Bu ohang "Hijron" she'rida, "Uni Farhod der edilar" dostonida, H.Olimjon tomonidan tahlil qilinib bosmaga tushirilgan "Hijron kunlarida" she'riy to'plamida muhim o'rin tutdi. Bundan ko'rinib turibdiki, Zulfiyaxonim nafaqat o'z (turmush o'rtog'i H.Olimjonning yosh, bevaqt o'limi) taqdiri, balki butun mamlakat ayollari nomida, ovozida kuyladi.

Yuqoridagi dalillar har ikki shoira ijodida ham hijron motivi ustunlik qilishi boisi, ular yashagan mamlakatdagi o'ziga xos bo'lgan, muhitdagi notinchlik sabab degan tushuncha shakllanishiga olib keladi. Amrita Pritam 1947 tildagi bo'linish natijasida ayollar boshiga tushgan og'ir vaziyatdan ta'sirlanib umrboqiy asarlar yaratgan bo'lsa, Zulfiyaxonim ikkinchi jahon urushi keltirgan azob-uqubatlar, yoshgina beva qolib, urushqurboniga aylangan ayollar taqdirini kuyinchaklik bilan qalamga oldi.

Misol tariqasida quyidagi to'rtlikni ko'raylik:

*Hijroning qalbimda, sozing qo'limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam.
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!*

"Men she'rlarimizning bir mavzu atrofida cheklanib qolishini istamayman", degandi Zulfiya. Uning lirikasi ham A.Pritam kabi ko'povozli. Bu ohanglarning eng muhimi va jarangdorini baxtiyorlik va hijron, g'am-fojeiylilik tashkil etadi:

*Ma'yusi ham, yorqini ham bor.
Tuproq, hayot, yurak bu axir,-*

deydi u.

Vafo va sadoqat talqini Zulfiya qalamiga mansub "Sog'inganda", "Ne baloga etding muhtalo", "Sen qaydasan yuragim" va "Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh" kabi she'rlarida o'zining yorqin ifodasini topgan.

Zulfiya she'rlarida dunyoday qadimiy bu tuyg'uga bandi bo'lgan qalbning o'rtanishlari, ziddiyatli o'y-fikrlari, ichki qarama-qarshiliklari ehtirosli ifodalangan. Misol taridasida quyidagi to'rtlikni ko'rsatishimiz mumkin:

*Nahot shuncha mas'um, shuncha pok
Sevishmoqda alam bor shuncha?
Bardosh bermas iroda, idrok,
Tamoman lol aql, tushuncha.*⁸⁴

Xuddi shunday hissiyotlarni A.Pritam qalamiga mansub "Quvonch" she'rida ko'rishimiz mumkin, ya'ni:

*Hayratning achchiq tikani vujudimga shunday sanchildi
Lol qolgan aql hayratda, alamga qandayin yengildi.*

Shoiraning qaysi she'riga nazar tashlamang, masalan, "Ne baloga etding muftalo", "Sadoqat", "Yurakka amr yo'q" kabi, undagi obrazlar ayollarning qalbi zamirida yashirilib yotgan hislardan topilgan. Uning tashbehlari ayollar bisotidan to'qilgan.

1. Yarim taqdir go'yo siniq ko'zgumish,

Hayot taqozosi baxt bekamlikdir.⁸⁵

2. Kuz singari za'far ruxsorman,

Mevalar ham shoxlardan uzuq.⁸⁶

3. Birov azasida yig'layman qon-qon,

To'yida yayrayman o'xshab ohuga.⁸⁷

Shoira A.Pritam she'riyatida kuzatilganidek butun diqqatini hijronda ezilgan ayolni kuylashga qaratdi. Bu ayniqsa uning "Sensiz", "Bahor keldi seni so'roqlab" she'rlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Zulfiyaning muhabbat lirikasida A.Pritam kabi sevgining hijronli holatlari yorqin ochib berilgan. Buning misoli o'sha "Ko'rganmiding

⁸⁴Zulfiya. Ne baloga etding muftalo, Tong bilan shom aro. 21-b.

⁸⁵Zulfiya. Balki. 86-b.

⁸⁶ Zulfiya. Sog'inib. 65-b.

⁸⁷ Zulfiya.Sensiz. 28-b.

ko'zlarimda yosh" yoki bo'lmasa, "Sog'inganda" nomli she'rlari. Shoiri bu sevgi talqini orqali muhabbatning eng ehtirosli, teran va xarakterli qirralarini ochib berishga muvaffaq bo'lgan. Bir jihatdan olganda, sevgi yo'lidagi to'siqlar qanchalar qattiq, og'ir bo'lsa, uning ichki quvvati shunchalar ko'p namoyon bo'la boradi. Oson erishilgan va baxtli-saodatli sevgi o'z keskinligiga ko'ra fojeali sevgi bilan tenglasha olmaydi.

Zulfiya ijodining boshidan to oxirigacha hamma narsada uning ikki tomonini, baxtda uning zidi bo'lmish baxtsizlikni, quvonch bilan birga g'amni idrok etadi.⁸⁸ Ushbu holatni biz Amrita Pritamning "ma'sum to'la quvonch"ga bergan ta'rifida uchratamiz. Ehtimol, panjob shoirasining diydorga umidi, ya'ni quvonchiga birga emasligi ma'sumlik baxsh etayotgan bo'lsa, "O'zbekiston kokili" uchun yorining bevaqt vafoti g'am lekin, u bilan bog'liq xotiralar quvonchdir.

Har ikkala ijodkor ham hayotda, ayol taqdirida kemptiklik bo'lishini istamaydi, butun borlig'ini inson uchun tugal, bir butun va boqiy baxt bo'lishiga erishishga qaratadi.

Zulfiyaning "Ne baloga etding muftalo" she'rini o'qir ekansiz, uning Hamid Olimjonga bag'ishlangan avtobiografik asarlar ekanini aniq tushunib yetasiz. Ammo bu she'rlar ikkinchi jihatdan, birgina Zulfiya shaxsi to'g'risida emas, balki muhabbatdan bevaqt ajralgan, birinchi sevgisiga sodiq qolgan, vafodor, sabotli barcha millat ayollarining tuyg'ulari ifodasidir. Ularda akslangan vafo va sadoqatning umuminsoniy xislatidir.

O'tdi oylar g'am bilan oqib,

Dil topmadi zarra tasallo.

Firoqingda qoldim tutoqib,

Ne baloga etding muftalo!

Yuqoridagi to'rtlikdan ko'rinib turibdiki, Zulfiya she'rlarida hijron motivi ustunlik qiladi.

⁸⁸Mamajonov S. So'z boshi//Zulfiya.Tanlangan asarlar (Shalola I jild).– T., 1985. – B.15

*Ko'z ochgani qo'ymaydi alam,
Boshim qo'ysam kuydirar bolish.
Yupatolmas kitob va qalam,
Misralarim ko'tarar nolish.*

Uning o'rtanishlari, nolalari yurak tubidan chiqqan sado misoli kitobxon qalbidan chuqur o'rin oladi.

Ayolning yoriga sadoqati kimlargadir erish tuyulishi, g'arbcha yashash tarziga unchalik ham mos kelavermasligi mumkin. Biroq sharqona mezonlardan kelib chiqib Zulfiya she'rlaridan o'rin olgan vafo, sadoqat timsoli, yorning xotirasi oldida o'z huzur-halovatidan kechishning yuksak namunasi sifatida talqin qilinadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, har ikkala shoira ham garchand ikki boshqa-boshqa davlatning, ikki boshqa-boshqa muhitning, ikki boshqa-boshqa millatning ko'zga ko'ringan vakilasi bo'lsada ijod mavzularining cho'qqisiga "ayol obrazini, uning dildagi iztiroblari, yashirin dardini" olib chiqdilar.

Ular she'riyati teran fikr bilan jo'shqin hissiyot uyg'unligidan hosil bo'lgan, demak, intellektual va psixologik she'riyat. Unda vaqt va makon qamrovi keng, yaxlit. Ijodida xotira, taqdirdosh, yuragiga yaqin kishilar, kelajak ohanglarining barqarorligi mavjud.

3.3. Amrita Pritam va Zulfiya ijodida ona yerga sadoqat mavzusi

*Hurriyat keldingmi – nahotki kelding,
Pinhona sog'indim, pinhona kutdim...*⁸⁹

"O'zbekiston ovozi"ga aylangan o'zbek shoirasi Zulfiyaxonim qalamiga mansub ushbu misralardan anglashiladiki, yurt tinchligi, hurriyatga intiqlik va

⁸⁹Zulfiya. Xotiram siniqlari, Tong bilan shom aro (Saylanma). 213-b.

obod vatan har bir ijodkor, nafaqat ijod ahli, balki, har bir faol va uyg'oq fuqaro uchun eng dolzarb masala hisoblanadi.

Quyida qanday mavzu bo'lishidan qat'iy nazar, har bir shoirning o'z ohangi, o'z ovozi borligini inobatga olgan holatda, har ikki shoira ijodida ona zaminga sadoqat mavzusi qanday madh etilganligi, ijtimoiy mavzularda yozilgan she'rlar g'oyasiga makon va zamon ta'siri, ularning tarbiyaviy ahamiyati yuzasidan o'xshash hamda farqli tomonlarini ko'rib chiqamiz.

1950 yillarga kelib Amrita Pritam she'riyatida fuqarolik lirikasi bo'y ko'rsata boshladi. Ikkinchi jahon urushi, 1947 yillardagi mamlakatdagi siyosiy holat va bo'linish A.Pritam fikrlarini o'zgartirib yubordi. Shoiraning o'zi bu yillarni ijodida burilish yasagan yillar sifatida yodga oladi. Ushbu yillarga kelib shoirada Hindiston taraqqiyotiga ta'sir o'tkazayotgan ijtimoiy muammolarni idrok etish salohiyati paydo bo'ldi. O'zgacha fikrlar, yangicha qarash uning ijodini yangi-yangi obrazlar bilan boyitdi.

Hindshunos T.A.Xodjayeva yozishicha, 1947 yildan keyingi ijodida Hindiston oldida turgan muammolarni hal etish yo'llarini qidiradi, insoniyat taqdirini umumbashariyat taqdiri bilan aloqador ekanligini ko'rsatishga intiladi.⁹⁰

Taniqli olim I.D.Serebryakov qarashlariga ko'ra, 1952 yilda yozilgan "*Penjab di avaz*" ("Panjob ovozi") va 1955 yil nashdan chiqqan "*Mauli te mehndi*" ("Ленты и краски"), "*Des vapasi*" ("Возвращение на родину") kitoblaridan joy olgan she'rlarida chin ma'noda xalq dardi kuylangan deyish mumkin.⁹¹

Nafaqat Hindistonda, balki Pokistonda ham mashhur bo'lish barobarida, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida ro'y berayotgan muammolar ifodasi sifatida dunyoga kelgan "Vorisi shoh" she'rida ayniqsa tinchlikka bo'lgan intiqlik bo'y

⁹⁰ Xodjayeva T.A. Hindiston xalqlari adabiyoti. 126-b.

⁹¹ Серебряков И.Д. Пенжабская литература. с.164

cho'zib turadi. "Mera pata" ("Mening makonim") va "Ek Mulaqat" ("Muloqot") she'rlarini ham ushbu mavzuda yaratilgan she'rlar sirasiga kiritish mumkin.

میرا پتہ ("Mening makonim")⁹² she'ri

Bugun men uyimning nomerini o'chirib yubordim	آج میں نے اپنے گھر کا نمبر مٹا دیا
Va gulning peshonasiga yozilgan, gulning nomini siljitib yubordim.	اور گل کی پیشانی پر ثنب، گل کا نام ہٹا دیا ہے
Har ko'cha yo'nalishining nomini tozaladim	ہر سڑک کی سمت کا نام پونچھ دیا ہے
Agar meni qidirishni xohlasang	اگر مجھے ڈھونڈنا چاہو
Unda har mamlakatning, har shaharning, har ko'chaning darvozasin taqillat	تو ہر ملک کے ہر شہر کی ہر گلی کا
Bu bir ma'qul gap janjal sabab	دروزہ کھٹکھٹاؤ یہ ایک کلمہ خیر ہے، باعث شر ہے
Qayerdagi bir ozod ruhning sharpasini sezsang	جہاں بھی اک آزاد روح کی جھلک دکھائی دے
Tushunginki o'sha mening uyim	سمجھنا وہ میرا گھر ہے

Ushbu ko'p tarxli intellektual she'rning falsafiy qirralarini, ma'no-mazmunini, g'oyasini daf'atan ilg'ab olish oson emas. Shoir davr, notinchlik va qirg'inbarotlar haqidagi o'ylarini ifodalashda birmuncha murakkabroq yo'ldan boradi. Shoirning butun she'riyati singari fuqarolik lirikasi ham o'ziga xosligi, teranligi, tuyg'ularning tabiiyligi, hayotiyiligi, real voqelikka monandligi bilan ajralib turadi.

*E'zozlar, ardog'lar uchun tashakkur,
Asli Siz oftobim, men ziyosiman.
Tonglaringiz kulsin dorilomon, hur,
Baxtim shul – o'zbekning Zulfiyasiman.*

Ona-yurt, sevgi, bahor madhiga yo'g'rilgan ushbu satrlardan nurlangan har bir ko'ngil hamisha ana shunday samimiy izhorlarga mushtoq. Bunday

⁹² Pritam A. Amrita Pritam ki shairi. 36-b.

o‘tlug‘ satrlar Vatanni, hayotni sevlashga, insonni qadrlashga, orzuga yetish uchun kurashishga, ko‘ngilda manguликka daxldorlik tuyg‘usini his etishga chorlaydi.

Aslida Vatanga ichki rishtalar bilan bog‘lanib, shukronalik hissini tuyish ijodkor uchun qanchalik baxt bo‘lsa, kitobxon uchun ham farahlidir.

Shu kunlarda qalb qo‘shiqqa tor,

Kunda bitta yozajakman she‘r.

Ma‘yusi ham, yorqini ham bor,

Tuproq, hayot, yurak bu axir...

Insonning o‘zini anglashi buyuk hodisa. Qalb tug‘yonlari yillar qalovida toblanib, yuraklarda abadiy yashashi – bu komillikdir.

O‘zbek shoirasi Zulfiyaxonimning Ikkinchi jahon urushi natijasida yuzaga kelgan siyosiy holatdan ta’sirlanib yozgan she‘rlari xalqning yuragining tub-tubidan joy oldi. Zulfiya urush boshlanishi bilan

“Dushman ajal tortib keldi Vatanga,

Bizning sevgimizga tashladi hijron”,

deb xalq boshiga tushgan kulfatni tahlil etishga kirishdi, xuddi A.Pritam singari hijron ohangi orqali xalq irodasi, jasorati va g‘alabaga bo‘lgan qattiq ishonch tuyg‘usini ifodaladi.

Urush yillarida Zulfiyaning ijodi yanada mazmundor bo‘ldi. Bu yillarda u “Uni Farhod der edilar” (1943), “Hijron kunlarida” (1944), rus tilida “Vernost” to‘plamlarini nashr ettirdi. Bular orasida “Qo‘limda qurolu, ustimda shinel”, “Gullar ochilganda”, “Palak”, “O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush” she‘rlari ayniqsa, diqqatga sazovordir.

“Uni Farhod der edilar” poemasida ham ayol qalbining sezgir beorom tabiatini ko‘ramiz. Doston, bizningcha, hozirgacha o‘z fayzini saqlab qolgan asarlardan. Doston markazida qahramonning vatanparvarlik, mardlik bilan to‘la ma‘naviy dunyosi tahlil etiladi. Asarning zamirida san‘atkorning so‘zi bilan ish

bir bo'lishi kerak, degan fikr mavjud. Qobilqori o'zbek sahnasida juda ko'p rollarni ijro etib, qahramonlik, insonparvarlik, vatanga jon fidolik kabi tuyg'ularni targ'ib qilgan edi. Uning iste'dodiga qoyil qolgan tomoshabinlar Farhod rolini mahorat bilan ijro etgan Qobilqorini Farhodning o'zi-ya, derdilar. Shuning uchun shoira xalqning mehridan kelib chiqib, dostonni "Uni Farhod der edilar" deb nomlaydi.

Ulug' Vatan urushi davridagi shoiraaning yuqorida aytib o'tilgan "Uni Farhod der edilar" (1943), "Hijron kunlarida" (1944) kabi to'plamlaridan joy olgan she'rlari, A.Pritamning "Voris shoh", "Mening makonim" kabi she'rlari Vatanga muhabbat, dushmanga nafrat va g'alabaga ishonch ruhida yaratilganligi bilan xarakterlidir.

Mustaqillik millatning uyg'onishida, milliy g'urur tuyg'ularining chuqur tomir yoyishida, Vatanni tanishning teranlashishida shoirlar so'zining salmog'i beqiyos bo'ldi. Ularning lirik qahramoni o'z ona zaminini otashin bir sevgi bilan sevadi. Shunisi xarakterliki, ona zaminga bo'lgan muhabbat balandparvoz misralar, yalong'och madhiyalar bilan emas, balki lirik qahramon qalbining tub-tubidan otilib chiqqan kechinmalar, bezovta o'ylar tarzida inkishof topadi:

Har ikkala ijodkor tinchlik orzusi madh etilgan she'rlar yaratib, baxtli zamonani – Vatan mustaqilligini ko'rishga muyassar bo'ldi, o'z xalqi boshidan o'tgan dardu jafolar ortda qolganidan shukronalar aytdi.

Shoirlarning ona zaminga sadoqat mavzusida yozilgan she'rlari uchun umumiy bir ohang, umumiy g'oya – bu hurlik, milliy uyg'onish g'oyasidir. Milliy g'urur tarannumida ham yaqinlik yaqqol namoyon.

Ularning ushbu mavzuda bitilgan she'rlarida o'xshashlik hosil qiluvchi omillardan yana biri – har ikkala ijodkorning har qanday mavzuga ayol qalbi orqali kirib borganligidadir.

A.Pritamning "Voris shoh", "Mening makonim", "Suhbat" va Zulfiyaning "Qo'limda qurolu, ustimda shinel", "Gullar ochilganda", "O'g'lim, sira

bo'lmaydi urush" kabi she'rlarida ona zaminga sadoqat mavzusining yangi qirralari ochib berildi, yurtning koriga yaragan ezgu fazilatli insonlar obrazi yaratildi. Bu she'rlarning mazmun-mundarijasini Vatan va xalq sha'niga madhiya aytish, mavjud reallikni shunchaki ta'kidlash tashkil etmaydi, aksincha jahon tsivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo'shgan qadim yurtning, *"jonida bir gavhar bor"*, *"qonida iymon nuri doimo oqib turgan"*, *"kattakon yo'lga chiqqan"* xalq kechmishi va istiqboli manzaralari chizildi, mas'uliyatli bugunga xos xususiyatlar badiiy gavdalantirildi, inson va jamiyat, inson va tabiat mavzusidagi azaliy o'ylar davom ettirildi. Istiqlolning qadriga yetish, tinchlikni ko'z qorachig'idek asrash, o'tmish saboqlaridan qat'iy xulosa chiqarib, jahonaro qadrini tanigan xalq bo'lishga da'vat hissiy-obrazli yo'sinda ifodalab berildi.

Umuman, xalq, uning dardu tashvishi, ona zaminga sadoqat mavzusi shoiralar ijodida ayricha bir muhabbat bilan qalamga olindi.

3-bob bo'yicha xulosalar

Ushbu bob Hindiston va O'zbekiston atalmish jannatmakon o'lkalarning adabiy aloqalarini har ikki mamlakatning ko'zga ko'ringan ijodkorlari A.Pritam va Zulfiyaxonim ijodi misolida ko'rib chiqishga qaratilgan bo'lib, unda shoiralarning ijod namunalari tahlilga tortildi hamda bir qancha o'xshashliklar aniqlandi.

Ularning she'riyati inson ruhiy-ma'naviy olamini boyitishga xizmat qilishi bilan xarakterlanadi. Sevgi haqidagi hazin, mungli ohanglar har qanday oh-vohlar, o'ldim-kuydimlardan tamomila yiroq. Javobsiz muhabbat iztirobi, alami, chuqur insoniy kechinmalar, chinakam sevgi orzumandi bo'lgan katta qalb egasining dardi, hasratlari, yonish-o'rtanishlari, iztiroblari shoiralar muhabbat lirikasining mazmunini tashkil etadi.

Muhabbatga sadoqat shoiralar lirik qahramonining estetik ideali bo'lib qoldi, ular she'riyati – ayollar dunyosi.

A.Pritam o'zining ishqiy lirikasida hind ayollarining sevinchlarinigina emas, balki ko'ngildagi hasratlarini ham, shaxsiy hayoti bilan aloqador bo'lgan xohishlarini ham ro'yi-rost so'zlab berdi. Ayollar to'g'risida shoirlar aytolmagan gaplarni aytdi bundan lirik qahramonning ichki dunyosi boyidi va kengaydi.

Zulfiyaning ayol taqdiri kuylangan she'rlarida dalada quyosh taftidan qo'llari qoraygan terimchi singilning orzu-armonlarini, qizlar qalbidagi beg'ubor kechinmalarni, Ona bo'lmoqlikning azobli huzurini ifoda etdi. Buning haroratini uning har bir satridan sezish mumkin.

Har ikkala shoira ham ayol taqdiri, ona zaminga sadoqat mavzusi hamda ish tarannumiga bag'ishlab yozgan she'rlarida hijron, sevgi, sadoqat, vatan, o'lim, tong, hayot, umr, tinchlik, dunyo, yurtdoshlarining shodligu qayg'ulari, iztiroblarini o'ziga tegishli dard sifatida talqin etdilar. Ayniqsa, ularning

she'rlarida ayollarga xos nafis, latofatli, jozibali his-tuyg'ular hukmron. She'rlarida samimiylik kuchli. Mehribon onaning g'amxo'rligidan tortib, Ona-Vatanni asrab-avaylashgacha bo'lgan umuminsoniy g'oyalar etakchilik qiladi.

Rasul Hamzatovning "Zulfiya o'z xalqining taqdiri bilan qo'shilib ketgan ijodkor", deya bergan ajoyib bahosi, to'la-to'kis Amrita Pritam shaxsiyati uchun ham o'rinli.

Darhaqiqat, dunyoning qaysi chetida yashashidan qat'iy nazar, ayol – bu ayol. Uning dunyoqarashi, dardi bir, quvonchi, g'am-alami, suyinchiligi bir. Ularda sevgi-muhabbat masalasiga ham umumiylik mavjud. Shuning uchun ham har ikkala shoira yaratgan she'rlarida mavzu nuqtai nazaridan va ular yaratgan obrazlarda o'xshashlik yaqqol ko'zga tashlanadi. Nafaqat ular yaratgan obrazlar, xatto, ularga berilgan ta'riflar ham o'xshash. Adabiyot sahnasidagi ulkan xizmatlari uchun Zulfiyaga "*O'zbekiston ovozi*" deb xos sifat berilgan bo'lsa, A.Pritam esa "*Panjob ovozi*"⁹³ deya e'tirof etildi.

Taniqli shoirlar do'stlik va ijodiy aloqalari ko'p yillar davom etib, har ikkala mamlakat madaniyatini, tarixini, adabiyotni yaqinlashtirishga o'zining munosib hissasini qo'shdi.

⁹³ 1961 yil T.A.Xodjayeving A.Pritamga bag'ishlangan shu nomdagi maqolasi nashr etilgan.

XULOSA

Amrita Pritam Panjob she'riyatining yorqin yulduzidir. Tanqidchilar, adiblar fikricha, u yozuvchi ayol sifatida nazmda ham, nasrda ham mustaqil ayol tabiatini yarata olgan. Uning ijodi hind insonparvarligi, an'analariga tayanadi. A.Pritam nomi zamonaviy Panjob adabiyoti tarixini o'rganishda birinchilardan bo'lib tilga olinadi. Shoiraning lirik obraz yaratish masalasiga bag'ishlangan ushbu magistrlik dissertatsiyasi so'ngida olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida quyidagi umumiy xulosalarga keldik:

Amrita Pritam Panjob she'riyatiga o'z ohanglari, o'z ifoda usuli, borliqqa - tabiat va jamiyatga, odamlarning ruhiy olamiga o'z qarashlariga ega bo'lgan lirik qahramoni bilan kirib keldi. Shoir she'rlarida lirik qahramon ko'p qirrali va shu bilan birga uyg'un obraz sifatida namoyon bo'ladi. Uning lirik qahramoni evolyutsiyasini she'rda o'rta qo'yilgan muammolar, ularning mazmunini ochib berish, shoir she'riyatidagi asosiy motivlar va kayfiyatlarni, she'r manbalarini aniqlash orqali tushunish mumkin.

She'riyatning tabiati, o'ziga xos qonun-qoidalar, xususiyatidan kelib chiqqan holda lirik qahramon faqat shoira shaxsi bilan chegaralanib qolmaydi.

Bu jihatdan Y.Yevtushenkoning fikrlari e'tiborlidir: "Shoiraning tarjimai holi - bu uning she'rlaridir... Shoira boshqalar to'g'risida shafqatsizlik bilan haqiqatni yozish huquqiga ega bo'lish uchun o'zi haqida ham shafqatsiz haqiqatni yozishi kerak. Shoira shaxsini real shaxsga va poetik shaxsga ajratish so'zsiz ijodiy o'z joniga qasd qilishga olib keladi...She'riyatda o'zi haqida sukut saqlash shak-shubhasiz boshqa barcha odamlar haqida sukut saqlashga, ularning iztiroblari, g'am-qayg'ulari haqida miq etmaslikka olib keladi"⁹⁴.

⁹⁴Евтушенко Е. Политика – привилегия всех. – М.: "Издательство агентство печати новости", 1990. – стр. 589

Amrita Pritam she'riyatida rang-barang turfa olam lirik xarakterlar yaratish orqali poetiklashtiriladi. Shu ma'noda lirik xarakter shoiraning hayotni o'ziga xos idrok etishini, hayot hodisalarining yangicha talqinini, o'z yoqtirishi va yoqtirmasligini, ijodkor sifatida o'z qiyofasini, qalb rozini izhor etish vositasi hisoblanadi. She'riy asarning tabiatidan kelib chiquvchi lirik xarakter ijodkorning borliqni sub'yektiv tushunishi, aks ettirishi bilan chambarchas bog'liqdir.

U Panjob bo'linishi davridagi xotin-qizlarning ayanchli ahvolini o'z ko'zi bilan ko'rdi va shuning uchun hayotni realistik tasvirlab berdi.

Amrita Pritamning she'riy uslubida falsafiy-lirik yo'nalish ustunlik qiladi. Olam badiiy-falsafiy idrok etiladi. Biroq falsafiy unsurlar aralashishi she'rni falsafiy tizimning she'riy bayonidan iborat qilib qo'ymaydi. Falsafiy ruh ustunlik qilgan, inson va tabiat munosabatlari zamiriga qurilgan, chaqnab turgan tafakkur yog'dularidan bino bo'lgan bu she'r imoratida eng avvalo lirik sub'yektning ichki tuyg'ulari izhori, uni to'lqinlantirgan, hayajonlar girdobiga otgan his-tuyg'ularning ziddiyatli kechinmalari oldingi o'rinda turadi. Shoirani cheksiz o'ylarga toldirgan azaliy va abadiy muammolar lirik obraz libosiga burkanadi va badiiy-falsafiy umumlashma darajasiga ko'tariladi.

Shoira lirik sub'yektning o'y va kechinmalarini inson ongi va dunyoqarashining eng umumiy qirralari bilan mutanosib olib qaraydi va tasvirlaydi. Mangu muammolar haqida so'z borganda ham hamisha ayol taqdiri shoiraning ko'z o'ngida turadi, insoniyatni ming yillardan beri o'ylantirib kelayotgan muammolar, masalalar, dolzarb zamonaviy hodisalar, muammolar bilan uyg'unlashib ketadi. Shoiraning umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlar mavzusidagi yuksak maqomli tafakkur she'riyatida inson va borliq masalalari aniq maqsad bilan o'rta qo'yiladi va talqin qilinadi.

Tanqidchilar, adiblar fikricha, u yozuvchi ayol sifatida nazmda ham, nasrda ham mustaqil ayol tabiatini yarata olgan. Uning ijodi hind insonparvarligi, an'analariga tayanadi.

Mavzu jihatidan, ayniqsa ularda yaratilgan obrazlar nuqtai nazaridan zamonaviy Panjob shoirasi A.Pritam she'riyati bilan o'zbek shoirasi Zulfiyaxonim lirikasi o'rtasida mushtaraklik ko'zga tashlandi. Misol uchun har ikkala shoira ijodida ayol taqdiri va ona zaminga sadoqat mavzusidagi she'rlar yetakchi o'rin egallagan.

Amrita Pritam ham, Zulfiya ham o'z she'rlari orqali "Hayot qanday yaralganiga emas, nega shunday yaralgan?" degan savolga javob berishga harakat qiladi.

Shoiralar nima haqida fikr yuritmasinlar, unga o'zlarining, ayollar qalbidagi yo'lak orqali kirib boradilar. Ayollar qalamidan tushgan har bir so'z, obraz, bo'yoqda ular qalbining muhri turadi. Har ikki yurt vakilasi ham ayollarni jamiyatning hur, teng va fidokor yaratuvchisiga va o'zining munosib o'rniga aylanishi kerakligini mehr bilan tasvirladi.

Xulosa o'rnida bugungi kunda O'zbekistonda yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, ayniqsa tarjima sohasiga qaratilayotgan e'tibor haqida so'z yuritib o'tish joiz deb hisobladik. Shunday ekan, biz yaratilayotgan imkoniyatlardan to'laqonli foydalanishimiz, yurtimizning tarixi, madaniyati va ma'naviyatini o'zga yurtlarga ham tanitishga harakat qilmog'imiz lozim. Zero, biron bir xalq ma'naviyatiga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi, tabiiyki, ana shu xalq tarixiga nisbatan chuqur hurmat ifodasidir. Bunday e'tirof xalqning g'urur va iftixori, milliy o'zligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.⁹⁵

⁹⁵Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2009. 48-b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz, 7-jild. – T.: “O'zbekiston”, 1999
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. – T., 1999
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008. – 176 b.
4. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – T.: “Ma'naviyat”, 2009

II. Ilmiy adabiyotlar

O'zbek tilida:

5. Абдурахмонов Г. Ўзбек тили грамматикаси. – Т.: “Фан”, 1975
6. Абу Наср Форобий. Шеъррий санъатлар. – Т.: “Фан”, 1977. – 67 b.
7. Адабий тур ва жанрлар 3 жилдли (2-жилд Лирика) Т., 1992
8. Адабиёт назарияси 2 жилдли. – Т., 1978
9. Afoqova N. She'riyat va sababiyat. – T.: “Akademnashr”, 2012. – 56 b.
10. Аристотел. Поэтика. – Т.: “Адабиёт ва санъат нашриёти”, 1980. – 151 b.
10. Asallayeva A. Badiiy san'at jozibası. – T., 2005
11. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. – T.: “O'qituvchi”, 1996. – 175 b.
12. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1999. – 240 bet.
13. Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi? – T.: Sharq nashriyot matbaa konserni, 2001. – 96 bet.
14. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – T., 1992. – 655 b.
15. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Т.: “Ўқитувчи”, 1986
16. Orzibekov R. O'zbek lirik she'riyati janrlari. – T.: “Fan”, 2006. – 354 b.
17. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004

18. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: “Akademnashr”, 2010. – 400 b.
19. Султонова М. Зулфия. – Т., 1985
20. Султонова М. Ижод саҳифалари. – Т., 1975
21. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 140 b.
22. Xodjayeva T.A. Hindiston xalqlari adabiyoti. – T.: TDSHI nashriyoti, 2010. – 204 b.
23. Xodjayeva T.A. O'zbekiston va Hindiston adabiy aloqalari tarixidan. – T.: TDSHI nashriyoti, 2011. – 128 b.
24. Xodjayeva T.A. O'zbek-hind madaniy-adabiy aloqalar tarixidan. – T.: TDSHI nashriyoti, 2012. – 104 b.
25. Xodjayeva T.A. Panjob adabiyoti. – T.: TDSHI nashriyoti, 2014. – 91 b.
26. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: “”, 2008. – 284 b.
27. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – T.: “Fan”, 2008
28. Zulfiya. Tong bilan shom aro (Saylanma). – T.: “Sharq”, 2005. – 224 b.
29. Зулфия. Асарлар 3 жилдлик (Ж.1. Шалола). – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – 416 b.
30. Zulfiya. Asarlar 2 tomlik (T.l.) – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974
31. Zulfiya. Visol (She'rlar, dostonlar). – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972
32. Зулфия. Ёиллар, йиллар(шеърлар). – Т.: Гафур Гулом нашриёти, 1975
33. Зулфия. Танланган асарлар. – Т., 1985

Rus tilida:

34. Чельшев Е.П. Современная поэзия хинди. – М.: “Наука”, 1965. – стр. 370
35. Чельшев Е.П. Современная индийская литература. – М.: “Художественная литература”, 1981. – стр. 350
36. Чельшев Е.П. Индийская литература вчера и сегодня. – М.: “Художественная литература”, 1989. – стр. 382

37. Серебряков И.Д. Пенжабская литература. М.: “Издательство восточный литературы”, 1963. – стр. 191
38. Поэты Индии (составление, предисловие в комментарий Челышев Е.П.). – Т.: “Художественной литературы УзССР”, 1958. – стр. 310
39. Неупокоева И.Г. Проблемы взаимодействия современных литератур. – М.: “Издательство академии наук СССР”, 1963. – стр. 226
40. Индийская поэзия XX века. – М.: “”, 1990. – стр. 486
41. Евтушенко Е. Политика – привилегия всех. – М.: “Издательство агентство печати новости”, 1990
42. Храпченко М.Б. Горизонты художественного образа. – М., 1982
43. Ходжаева Т.А. Художественная проза Амриты Притам. – Т.: ТашГИВ, 2007. – стр. 144

Ingliz tilida:

44. Ahluwalia Jasbir Singh. Punjabi literature in perspective. – Ludhiana, 1976
45. Gurbaxsha Singh. Kartar Singh Duggal as a writer of prose-fiction. – M., 1975.

Urdu tilida:

46. Pritam A. امرتا پریتم کی شاعری (Amrita Pritam she'riyati). – D.: “Star”, 1984. – 160 b.

Hindiy tilida:

47. Pritam A. Atit ki parchxhaiya:N (Xotiralar). – D., 1962

Lug'atlar

48. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat lug'ati. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2008. – 194 b.
49. Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlar lug'ati. – T., 1967
50. Xolmirzayev T.X. Urducho-o'zbekcha lug'at. – P.: “Muqtadira qaomi zaban”, 2003. – 440 b.

51. Xolmirzayev T.X. Urduha-ruscha lug'at. – P.: “Muqtadira qaomi zaban”, 2012. – 768 b.
52. O'zbek tilining izohli lug'ati, 1-2 tom. – M., 1981. – 482 b.
53. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2005

III. Ilmiy jurnallardagi maqolalar

O'zbek tilida:

54. Haqqulov I. Bobur she'riyatida tanosub san'ati // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 1981. – № 5
55. Mamajonov S. Uslub- obraz- tasviriy vositalar // Sharq yulduzi. – T., 1969. – № 6
56. Zulfiya. Xush kelibsiz, aziz do'stim Amrita Pritam // Sharq yulduzi. – T., 1961. – № 5

Ingliz tilida:

57. Tikki U. I write for myself // Hindustan Times. – New Delhi, 1981. January 25.

V. Internet saytlari

58. <http://www.indianlinguistics.ru>
59. <http://www.bhasha.co.i>
60. <http://www.jnu.com>
61. <http://www.ziyouz.com>
62. <http://www.ru.wikipedia.org>
63. <http://www.tsil.uz.ziyo>
64. <http://www.wikipedia.org>

ILOVALAR

“OVOZ”

Yillar oydek tez o'tib, sendan darak keladi,
Go'yo Sassi poyiga kimdir malham surgandek
Bugun kimning boshiga bilmam Xumo qo'nadi,
Oy tunning sochlariga go'yo gullar sochgandek.
Uyquning lablaridan javob nido keladi,
Go'yo ilk nurga o'xshab tunga sindur surgandek
Har bir satr balki sendan xabar beradi
Go'yo ishqdan oldin uning kuyi kelgandek
Ishq ahli armondan o'zga libos yasadi
Go'yo ayriliq ham kelibla qolgandek.

“MANZIL”

Qalam netay she'r qofiyasin bo'lib tashladi,
Ishqim meni nedir manzil tomon boshladi.
Qara, ko'r axir men sening yoningdaman,
Qalbimdan ayriliq tikanin chiqarib tashladi.
Xuddi qorong'ulik oramizga qo'shilganday
Muhabbatimiz shu sabab tamom bo'lganday,
Kel, sopol ko'zangdan bir kosa suv ber
Yo'l mojarosida men qo'limni yuvganday.

“YORUG’LIK”

Ayriliqning bu kechada yorug’ligi kelmoqda
Ehtimol, xotira shami sekin ko’tarilmoqda,
Bir hodisa, bir yara va bir dard bor dilimda
Tunning yulduzlari unga tinmay zarba bermoqda.
Osmon nazarida quyosh qayergadir ketmoqda
Ayni shul dam ham oyda uning isi kelmoqda,
Ishqing bir tomchisi meni ado aylaganda
Qalbim umrning butun achchig’ini ichmoqda

“QUVONCH”

Qayoqdandir keldi ovoz – ovoz go’yo ko’ngil bodasi,
Quloqlar xo’rsindi biroz, tebrandi hayot shodasi.
Ma’sum quvonch zorlanib, quloqlarin yoydi shoshib
Bokira bir qizga o’xshab, uzoqlarga ketdi qochib
1-tikan botdi nasabga, 2-tikan hayoga sanchildi,
3-tikan boylikga bo’lsa, xavf-xatar qancha tikani
Ehtimol dardim chiqarar, balki qonni tozalaydi
Ma’sumlik to’la quvonch tobora uzoqni ko’zlaydi.
Oldingi oyoq intilsa oldinga, boshqasi qayrilar devona
Ovoz go’yo butkul seniki, nigoh go’yo tamoman begona
Hayratning achchiq tikani vujudimga shunday sanchildi
Lol qolgan aql hayratda, alamga qandayin yengildi,
Zaharlangan butun tanam titrab ketdi nogahon
O’ltirib yig’lab yubordi ma’sumlik to’la quvonch hayron.

“VORIS SHOH”

Voris shoh tingla dardim – qabringdan so’zla!
Ishq kitobin soz varog’in ochmoqni ko’zla
Panjobning munis qizi alamla yig’lar,
Sen uning dard dostonin yozmoqni o’yla
Bugun millionlab qizlar faryodla yig’lar
Voris shoh! Senga ular nola aylarlar –
Ey do’sti ezilganlar, ko’r Panjobning holatin
Supalarni o’liklar jasadila to’ldirarlar,
Chinobku to’lib bo’ldi qon bilan allaqachon
Kimdir besh daryoni qonla to’ldirar hamon,
Ayni manashu suvla sug’orilmoqda yerlar!
Endi qayerda she’rdan taronalar eshitarlar
Uning kuychilari allaqayerga yo’qoldi bedod
Ranjhu akalari nay chalishni unutdi hayhot!
Voris shoh tingla dardim – qabringdan so’zla,
Ishq kitobin soz varog’in ochmoqni ko’zla...!

Urdu tilidan o’zbek tiliga magistrant

Mamajonova Mehrixon tarjimas